

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘zbek tili yo‘nalishi

447-guruh bitiruvchisi Mamatova Nilufarning

**“YO‘LDOSH SOLIJONOVNING ILMIY-NAZARIY
QARASHLARI” mavzusidagi**

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: Q.YO‘LCHIYEV,
o‘qituvchi.

Farg‘ona – 2013

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2013 yil
yig'ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

A.SABIRDINOV

Taqrizchilar:

O.AHMADJONOVA,

ona tili va adabiyot o`qituvchisi.

REJA:

KIRISH. Masalaning qo'yilishi va o'rganilishi.....

I BOB. ADABIYOTSHUNOSLIK VA UNING DOLZARB MASALALARI.

1.1 Yo'ldosh Solijonovning ilm sohasiga kirib kelishi

1.2. Badiiy asarda muallif nutqi va yozuvchi uslubi.....

II BOB. YO'LDOSH SOLIJONOV – BADIY NUTQ POETIKASI TADQIQOTCHISI.

2.1. Badiiy nutq tiplari, tasnifi va qo'llanilishi

2.2. O'zbek adabiyotshunosligining hozirgi dolzarb muammolari
va Yo'ldosh Solijonov ijodi.....

XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....

MAVZUNING DOLZARBLIGI: Farg'ona adabiyotining taniqli vakillaridan biri Yo'ldoshxo'ja Solijonov go'zal va o'zida chuqur hayot falsafasini aks ettirgan shaxs. Yo'ldoshxo'ja Solijonov o'zbek adabiyotshunosligining yirik vakillaridan biri. Bu fan-ning u qo'l urmagan sohasi, adabiyotda u yoki bu darajada munosabat bildirmagan ijodkori yo'q hisobi. Uning ijodida, asarlarining tilida keskinlik, o'ziga xoslik mujassam. Yozuvchining Farg'ona adabiyoti osmonida tutgan o'rni o'zgachadir. Uning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar va so'z qo'llash mahorati e'tirofga sazovordir. Adibning ijodini, uning asarlari tilini o'rganish uchun Yo'ldoshxo'ja Solijonov asarlarini, maqolalarini tahlil qilish lozim. Bunda Yo'ldoshxo'ja Solijonovning ijod sohasida tanlagan yo'li, ilmiy, ijodiy merosi, xalqimizning o'lmas og'zaki adabiyotidan boshlab, to hozirgi kunimizgacha bo'lgan ulkan adabiy jarayonni chuqur tadqiq etgan adabiyotshunos olim. Bu mahsuldorlik olimning tafakkur olami g'oyat keng va rang – barang ekanligidan dalolatdir. Yo'ldoshxo'ja Solijonov qalamga olgan muammolar doirasi keng. Yigirmanchi yillar adabiyotining muammolaridan tortib, to birinchi kitobi chiqqan yosh shoir ijodiga qadar, adabiyotimizning poydevoriga g'isht qo'ygan shoirlar, dramaturglar, nosirlar ijod uslubigacha u kishining tahlil doirasiga tortilgan. Yuqorida qayd etilgan masalalar esa mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

MAVZUNING O'RGANILISH DARAJASI: Badiiy asarda so'zning o'rni, vazifasi turli ma'no tovlanishlari, nutq ohangi aliohida ahamiyat kasb etadi. So'zning ana shunday turli funksional doirasini tadqiq etish ham adabiyotshunoslik, ham tilshunoslik fanlarining obyekti hisoblanadi. “Badiiy asar tili tilshunoslik va adabiyotshunoslik yo'nalishida bir xil usulda o'tgan asrning 40 – 60 – yillardan boshlab tekshirildi va bu borada ko'plab maqolalar e'lon qilindi”.²

Adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan badiiy nutqning o'ziga xos xususiyatlari, uning shakllari va tiplari, epik rivoya usullari hamda vositalari, muallif va qahramonlar nutqi orqali yozuvchi uslubini aniqlash asosan, XX asrning 70 – yillaridan boshlandi.³ Badiiy asar tili va nutq shakllari bo'yicha maxsus

² G'ulomov A. Badiiy adabiyotning tili haqida. “Adabiyot va san'at” j. 1941, №1.

³ Solijonov Y. XX asrning 80 – 90 – yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. – T., 2002.

tadqiqotlar olib borgan P. Qodirov, S. Mamajonov, O'. Nosirov, H. Umurov, G. Imomova, A. Nurmatov hamda badiiy nutq tiplari, tur - shakllari bo'yicha ilmiy izlanishlar qilgan yirik olimlar V.V. Vinogradov, G.O. Vinokur, M.B. Xrapchenko, N.K. Gey, M.M. Baxtin, A. Fyodorov, V. Kojinov, V.V. Odinsonlar qatorida ustoz Yo'ldosh Solijonovning ham mehnatlari beqiyosdir. Biz ushbu tadqiqotimizda asosan ustozimiz Yo'ldoshxo'ja Solijonovning ilm sohasigaa kirib kelishi, badiiy asarda muallif nutqi, yozuvchi uslubi, badiiy nutq tiplari, tasnifi, qo'llanilishi hamda o'zbek adabiyotshunosligining hozirgi dolzarb muammolariga bag'ishlangan izlanishlariga murojaat qildik.

BITIRUV MALAKAVIY ISHINING MAQSAD VA VAZIFALARI: Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi Yo'ldoshxo'ja Solijonov asarlarining badiiy xususiyatiga e'tibor qaratish, ijodkor asarlarining leksik, sintaktik xususiyatlarini tahlil qilishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirdik:

- Yo'ldoshxo'ja Solijonov ijodi bilan tanishish;
- Badiiy asarda muallif nutqi va yozuvchi ijodi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganish;
- Badiiy nutq tiplari, tasnifi va qo'llanilishini adib asarlari misolida o'rganish;
- Yigirmanchi yillar adabiyotining muammolaridan tortib, to birinchi kitobi chiqqan yosh shoir ijodiga qadar, adabiyotimizning poydevoriga g'isht qo'ygan shoirlar, dramaturglar, nosirlar ijod uslubining tahlil doirasi;
- O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari haqida bildirgan fikrlari;
- Publitsistik uslubga doir so'zlar qo'llashiga doir o'ziga xosligi;

ISHNING ILMIY YANGILIGI: Bitiruv malakaviy ishining yangiligi shundan iboratki, mazkur ishda Yo'ldoshxo'ja Solijonov ijodi, badiiy asarda muallif nutqi va yozuvchi ijodi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari, badiiy nutq tiplari, tasnifi va qo'llanilishi, o'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari haqida bildirgan fikrlari, publitsistik maqolalari, tanqidchilik mahorati tahsinga sazovordir. Biz Yo'ldoshxo'ja Solijonovni publitsist, tanqidchi, yetuk adabiyotshunos sifatida bilamiz. Shuning uchun yozuvchi ijodi, hali yetarlicha tahlil qilinmagan bo'lib,

mutloq yangi mavzu sanaladi. Mazkur ishda Yo'ldoshxo'ja Solijonov tomonidan qo'llanilgan juda ko'p xalqona leksemalar, adabiy til normasiga ega bo'lgan lug'aviy birliklar, umumqatlamga doir so'zlar, publitsistik uslubiga xos so'zlar va ularning ma'nolari, uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadiki, bu ijodkorning mahoratini yanada kengroq targ'ib etish imkonini beradi.

BITIRUV MALAKAVIY ISHNING MANBALARI: Tadqiqot vazifalari va tahlil uslubi taqozosiga ko'ra ishda quyidagi asosiy manbalarga tayandik: ilmiy adabiyotlar, darsliklar, qo'llanmalar, maqolalar hamda internet ma'lumotlaridan foydalandik. Shuningdek, adibning quyidagi asarlari ham manba vazifasini o'tadi:

1. Milliy istiqlol g'oyasini o'rganishning bazi dolzarb muammolari. Farg'ona, 2001 (N.Sobirov bilan hamkorlikda).

2. Nutq va uslub. T., Cho'lpon nomidagi nashriyot, 2002.

3. XX asrning 80-90-yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya avtoreferati. T., 2002.

4. Olimning olami. Farg'ona, 2004.

5. Farg'ona adiblari. Farg'ona, 2005.

6. Avtor nutqi va psixologik tasvir // Ijodiy jarayon va adabiy individuallik. T., 1980.

7. Hozirgi o'zbek prozasida nutq shakllari // o'zbek filologiyasi materiallari. T - 2002.

8. Ikki ovozli nutq // o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari. Farg'ona - 2005.

9. Detallar tilga kirganda. o'zbek adabiy tanqidi tarixi. Antologiya. T., "Turon - iqbol"

nashriyoti. 2011.

10. Badiiy nutq // o'zbek tili va adabiyoti. - 979.

11. Hozirgi o'zbek nasrida nutq shakllari // o'zbek tili va adabiyoti. - 2001

12. Dialog va uning badiiy asardagi o'rni // o'zbek tili va adabiyoti. - 2002, 4-son.

13. Nutq polifoniyasi va uning uslubiy vazifalari // FarDU ilmiy xabarlar. - 2002

14. Badiiy asarda monologik nutq // o'zbek tili va adabiyoti. – 2004

ISHNING METODOLOGIK ASOSI VA ILMIY METODI: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning milliy istiqlol mafkurasi, adabiy-madaniy meroslar va ularni tahlil qilish va o'rganishga oid asoslari tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi. Shuningdek, ishning maqsad va vazifalaridan

kelib chiqib, hozirgi tilshunoslik va adabiyotshunoslik erishgan ilmiy-nazariy yutuqlar va yangicha qarashlarga tayandik. Tadqiqotlar jarayonida O. Sharofiddinov, U. Normatov, N. Karimov, M. Qoshjonov, Omon Muxtor, O'. Hoshimov, G'. G'ulom, M. Shayxzoda, S. Ahmad, O. Yoqubov, P. Qodirov, S. Mamajonov, L. Qayumov, Y. Sulaymon singari yozuvchi va olimlarning ilmiy fikr hamda xulosalariga tayandik.

ISHNING ILMIY AHAMIYATI: Bitiruv malakaviy ishining ilmiy ahamiyatini adabiyot nazariyasining tarkibiy qismlaridan birini tashkil etgan badiiy til masalalari va nutq tiplarining badiiy asardagi o'rni, ro'li hamda ahamiyatini tadqiq etishga ilmiy – estetik yondoshuv, tipologik tahlil, yangicha yondoshuvlar asosida ish olib borish uchun yangicha talqin usullari tashkil etadi. Mazkur ishda adib ijodidagi o'zbek nasrida badiiy nutq tiplari, shakllar rang – barangligi, bevosita va bilvosita muallif nutqi, monologik hamda dialogik nutq shakllari, tiplari, tuzilishi haqidagi qimmatli fikr – mulohazalari aks etgan. Ulardan foydalanishda ijodkor mahoratini yoritib berish bo'yicha qilingan tahlillarning mavjud emasligi va ularning ilmiy xulosalanmaganligi bitiruv malakaviy ishining ilmiy qimmatini oshiradi.

BITIRUV MALAKAVIY ISHNING TUZILISHI VA HAJMI: Bitiruv malakaviy ishimiz jami 87 varaqdan iborat bo'lib, kirish, II bob va xulosadan iborat.

KIRISH.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi sharofati bilan boshqa sohalar qatorida ma'naviy hayotimizda ham ulkan o'zgarishlarga, yangilanishlarga keng yo'l ochildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek: "... Eng muhim vazifa shundan iboratki, o'zligimizni teran anglab, mutafakkir bobolarimiz, aziz avliyolarimiz qoldirgan bebaho merosni asrab-avaylab yanada boyitishimiz, ulug' ajdodlarimiz ishining munosib davomchilarimiz bo'lmog'imiz darkor".⁴

O'zbekiston Mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalarida erkin rivojlanish boshlandi. Bu hol ilm-fan, adabiyot va san'at taraqqiyotida ham o'z ifodasini topdi. Adabiy tanqid badiiy asarlarga milliy g'oya va umumbashariy mezonlar asosida baho bera boshladi. Ayni vaqtda, ana shunday yo'nalishlarda yangi asarlar yaratilishiga ta'sir ko'rsatishni asosiy maqsad qilib kuydi. Istiqlol davriga kelib, baholash mezonlarida jiddiy o'zgarishlar va yangilanishlar ro'y bera boshladi. Prezidentimiz I.Karimov tomonidan Alisher Navoiy asarlarini yosh avlod ruhiyatiga yanada chuqurroq singdirish, chuqur va har tomonlama tadqiq-targ'ib etish zarurligiga, deyarli davlat siyosati larajasida e'tibor qaratildi. O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi haqidagi - yangi, guldirlilib yanada boyitilgan Qonunning qabo'l qilinishi O'zbek xalqi g'ururiga g'urur qo'shdi. Mustaqillik yillarida Fitrat, CHo'lpon, A. Qodiriy, Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Elbek, Botu, Usmon Nosir hayoti va ijodini asl, tarixiy jihatdan haqqoniy tadqiq etish adabiyotshunoslik va tanqidning dolzarb masalalariga aylandi. H.H. Niyoziy, G'.G'ulom, Oybek, H.Olimjon, A.Qahhor kabi san'atkorlar asarlarini qayta va xolis baholashga o'tildi. Mustaqillik yillarida tarixiy-biografik tadqiqotlar yaratishga e'tibor kuchaydi. M.Qo'shjonov, O.SHarafiddinov, N.Karimov, E.Karimov, U.Normatov, B.Qosimov, A.Aliev, SH.Turdiyev, A.Jalolov, I. Haqqulov singari adabiyotshunoslar XX asr yozuvchilari xaqida qator sarmazmun tadqiqotlar yaratdilar. Ularning safiga B.Karimov, N.Jabborov, D.Qur'onov, U.Hamdam, S.Meliev, SH.Rizaev kabi avlod vakillari o'zlarining yangi-yangi salmoqli

⁴ Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun barchamiz mas'ulmiz. Toshkent: 2001. 12-bet.

izlanishlari bilan kelib qo'shildilar. B. Kosimov, SH. Yusupov, U. Dolimov, SH. Rizaev, S. Ahmedov qalamiga mansub "Milliy uyg'onish davri O'zbek adabiyoti" hamda N. Karimovning "XX asr O'zbek adabiyoti manzaralari" nomli kitoblar bu davrning katga yutuqlari sifatida e'tirof etildi. Tanqidda A. Rasulov, B. Sarimsoqov, B. Karimov, H. Boltaboev, U. Hamdamov, U. Jo'raqulov va boshqalarning asarlari misolida jahon adabiyotshunosligi tajribalari, mezonlari, uslubiy yo'nalishlari kuchaydi. Mustaqillik tufayli, ayniqsa, hur va erkin fikrlash imkoniyati yaratildi. Umuman, keng kitobxonlar ommasi, xususan, barkamol avlodni fikr qulligidan ozod etishga harakat, mustaqil fikrlay oladigan kishilarni tarbiyalash adabiy tanqidning ham yetakchi masalasiga aylandi.

Istiqlolning ilk yillarida (1993) Prezident I. Karimovning bir guruh ijodkorlar bilan uchrashuvi bo'ldi. Uchrashuvda birinchi marta Istiqlol davri O'zbek adabiyotining metodologik asosini demokratik tamoyillarga asoslangan, umuminsoniy va milliy kadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan Mustaqillik mafkurasi tashkil etishi lozimligi aytiladi.

U. Normatovning "Haqiqat taqazosi" maqolasida ham metodologik yangilanishlar jarayonidagi ziddiyatli holatlar haqida fikr yuritiladi. Mustaqillikning dastlabki paytlaridayoq adabiyot avval qanday edi- yu, endi yangi tipdagi adabiyot qanday bo'lishi lozim, degan masala kun tartibining asosiy muammosiga aylandi.

K. Yo'ldoshevning "Yonik so'z" kitobida jamlangan ko'pgina maqolalarning asosiy mavzusini yuqorida qayd etilgan masalalar tashkil etadi.

Q. Yo'ldoshev XX asr O'zbek adabiyotining yetakchi xususiyatlarini, ijtimoiylashuvining mohiyatini, sabab va oqibatlarini teran talqinlar asosida ko'rsatib beradi. U. Hamdamovning "Badiiy tafakkur tadriji" nomli kitobida ushbu masalalar yuzasidan e'tiborga molik fikrlar o'rta tashlanadi.

U. Hamdamov XX asr adabiyotini, Q. Yo'ldoshevdan farqli ularoq, ijtimoiy va meditatif asarlarga ajratadi. Bunda ijtimoiylikning vujudga kelishiga asos bo'lgan bir qancha omillar, jumladan, ichki va tashqi omillarni sharhlar ekan, badiiy ijodda

ijtimoiy, badiiy va ruhiy holatlar bir butunlik kasb etsagina, chinakam adabiyot yuzaga keladi, degan xulosani ilgari suradi.

Mustaqillik arafasida aytila boshlangan bunday fikrlar yangicha dunyoqarash, yangicha konsepsiyaning ilk kurtaklari edi. Bu kurtaklar mustaqillikning dastlabki yillaridayoq gunchalab, adabiyot va san'at, adabiy tanqididagi yangilanayotgan konsepsiyaning yetakchi tamoyillarini belgilashda muhim rol uynadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, yuqorida kuzatilganidek, yozuvchi va shoirlar, adabiyotshunos-u tanqidchilarning ilg'or kismi Mustaqillikkacha bo'lgan davridayoq yangi tipdagi

adabiyotning o'ziga xos shakl-shamoyili haqida fikr yurita boshlagan ekan, bu hol ularning yangi davrga ham ruhiy- psixologik jihatdan, ham aqliy- amaliy tomondan ma'lum tayyorgarlik bosqichini o'taganini bildiradi. Shuning uchun ham Istiqlolning dastlabki paytlaridayoq "Istiqlol adabiyoti qanday bo'lishi kerak?", "Yangi adabiyotning asosiy mezonlari nimadan iborat?", "U kimni va nimani tadqiq etadi, kimga va nimaga xizmat qiladi, qay yo'llardan yurib, qay manzillar sari boradi?" qabilidagi ko'plab savollar kun tartibiga qo'yildi. Istiqlol davri tanqidida adabiy tanqid metodologiyasining ingilanish tamoyillari. Istiqlol davri tanqidiga xos yangilanish tamoyillaridan yana biri XX asr O'zbek adabiyoti va uning namoyandalari ijodining qayta baholanganida kuzatiladi. 90-yillar tanqidi ijodkor jadidlar hayoti va faoliyatini o'rganish asnosida, nainki ularning asarlaridagi xosliklar, balki umuman, jadidchilik harakati, uning konsepsiyasi haqida ham muhim-muhim yangi xulosalarga keldilar. Natijada, bu davr adabiy hayotining haqqoniy tarixiy lavhalari bilan bir qatorda davr ijtimoiy hodisalarining tarixini tiklash bo'yicha ham muhim ishlar amalga oshirildi.

Bu hol istiqolol davri O'zbek tanqidi dastlabki bosqichidayoq milliy uyg'onish (jadid) davri adabiyotiga munosabatda tub yangicha yondashuv va tamoyillarni nainki boshlash, balki mustahkamlash yo'lida turganini ko'rsatadi.

Birinchidan, istiqolol sharofati tufayli milliy uyg'onish (jadid) adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodiga oldindan tayyor qoliplar asosida emas, balki yangi

shakllanayotgan milliy mafkura, Vatan va xalq, millat manfaatlari nuqtai nazaridan yondashildi.

Ikkinchidan, ilgari tilga olish xavfli hisoblangan jadid adiblari asarlarini, umuman, yoxud alohida-alohida emas, ularning har birining ijod namunalari va, umuman, jadid adabiyotini kompleks o'rganila boshlandi.

Uchinchidan, eng muhimi, XX asr boshidagi jadidchilik harakatiga ilk bor tug'ri metodologik yondashuv yuzaga keldi.

Istiqlol davri adabiy tanqidi shu muhim jixatlarning uyg'un talqiniga kirishdi va izlanishlar o'zining fundamental natijalarini berdi. Istiqlol davri tanqidining diqqat markazida Qodiriy, Fitrat va Cho'lpon ijodlari turgani tabiiy hol edi. Milliy uyg'onish davrining yetakchi namoyandalari bo'lgan bu ulug' adiblar hayoti va ijodiga bag'ishlangan ko'plab adabiy-tanqidiy maqolalar pirovard natijada O'zbek adabiyotshunosligida qodiriyshunoslik, cho'lponshunoslik, fitratshunoslik kabi yangi yo'nalishlarning to'la shakllanishiga olib keldi. Shu bois, 90-yillarning boshlaridayoq, Qodiriy hayoti va ijodiga bog'liq xaqiqatlarni to'la tiklash, asarlarini badiiy-estetik mezonlar, tamoyillar asosida qayta baholashga jiddiy e'tibor berila boshlandi. Bunda adabiy tanqid jahon adabiyotshunosligi va tanqidchiligiga xos ilg'or metodologik tamoyillarga tayandi, xorijda shakllangan qodiriyshunoslik, fitratshunoslik va cho'lponshunoslikning yetakchi konsepsiyalarni o'rganish orqali e'tiborli jihatlarini ijodiy o'zlashtirish yo'lidan bordi. Adabiy tanqid bu adiblar ijodini baholashda, ayniqsa, Qodiriy asarlari tadqiqida muvofiqlik va Natijada yozuvchi tarjimai holining shu paytgacha oshkor etilmagan qirralari yangi dalil va ma'lumotlar bilan to'ldirildi, ilgari ma'lum bo'lmagan dalillar, ko'lyozmalar, xujjatlar, arxiv materiallari ilmiy muomalaga kiritilib, muayyan xulosalar chiqarildi. Ilgari o'rganilgai manba va talqinlar qayta tahlildan o'tkazildi. Natijada, adabiy tanqidda bu davr adabiyotiga sistemali yondashuvning sifat jihatdan yangilangan namunalari yaratildi.

Keyingi davr tanqidida adabiy hodisalarga tarixiylik prinsiplari asosida yondashuvning kuchaygani yangicha adabiy tanqid metodologiyasining muhim tamoyillaridan biri - qiyosiy-tarixiy metod shakllanayotganidan dalolat beradi. Bu

borada keng ukuvchilar ommasiga oshkor etilgan materiallarni yangicha nuqtai nazar va yangicha konsepsiya bilan tadqiq hamda tahlil etishga harakat qilingani muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda, ayniqsa, N.Karimov, X., Boltaboev, Sh. Rizaev, N. Boqiy singari munaqqidlarning kuzatishlari xarakterlidir. Adabiy tanqidning ikkinchi muhim tamoyillaridan yana birini, shubhasiz, eng avvalo, ijodkor dunyoqarashi, poetik olami va voqelikni badiiy-estetik kashf qilish jarayoni - asarlarni tahlil va talqin qilishda yangicha mezon va metodologik tamoyillarga asoslanish tashkil qiladi. Bu borada, ayniqsa, Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon ijodlariga munosabat xarakterlidir.

Istiqlol arafalari va Mustaqillik davriga kelib jadid adabiyotining yirik namoyandasi Fitrat ijodini o'rganishga ishiga B.Kosimov, E.Karimov, N.Karimov, Sh.Turdiyev, S.Axmedov singari tanikli olimlar hamda ular safiga kelib qo'shilgan X., Boltaboev, U. Jo'raqulov, Sh.Rizaev, I.G'aniev, G.Raximova kabi ko'plab yangi avlod vakillari munosib hissa qo'shdilar. Istiqlol yillarida Oybek she'riyatini yangicha nuqtai nazardan tadqiq etgan I.Haqqulov, U.Hamdam, A.Sabridinov kabi olimlarning ishlari ham e'tiborga loyikligini aytib utish lozim.

Istiqlol davri tanqidining muhim jihatlaridan biri uning adabiy jarayon bilan o'zviy boglanishila ko'zga gashlanadi. Adabiy jarayondagi har qanday yangilanish, badiiy izlanishlar, : yashicha badiiy-estetik voqea-hodisalar ilmiy tafakkurda u yoqi bu

tarzda aks-sado berib, o'z ifodasini topa boshladi. Badiiy tafakkurdagi evrilishu yangylanishlar adabiyot ilmi oldiga yangi- yangi ilmiy g'oyalarning qo'yilishiga, yangi-yangi istiloh va tushunchalarning iste'molga kiritilishiga, mo'taxassislar orasida ommalashuviga olib keldi. Shu bois, Istiqlol davri tanqidchiligida "ong oqimi", "modernizm", "postmodernizm", "absurdizm", "freйдizm", "ekzistensializm" singari istilohlarning faol qo'llanila boshlashi tanqid ilmi metodologik tamoyillarining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda Istiqlol davri tanqidiga ko'pgina tushuncha va tamoyillarning kirib kelishini hamda ularning qo'llanishini kuzatish, shu asosda uning metodologik takomilini ko'rsatish g'oyat muhim.

“Ma`naviyatni shakllantirishga bevosita ta`sir qiladigan muhim hayotiy omil – ta`lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog`liqdir. Ma`lumki, otabobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo`lmish ilm-u ma`rifat, ta`lim va tarbiyaning inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilganlar”.⁵

Yurtimizda yoshlarning ta`lim-tarbiya olishiga katta ahamiyat qaratilgan. Barkamol va komil insonni tarbiyalash mamlakatimizda muhim masalalardan biridir.

Prezidentimiz Islom Karimov bu masalada shunday fikr bildiradi: “Biz komil inson deganda, avvalo, ongi yuksak fikrlay oladigan bilimli, ma`rifatli kishilarni tushunamiz”.⁶

Eng avvalo yoshlarni kafolatlangan ta`lim-tarbiyaga yo`naltirish uchun o`zligimizni anglashni o`rgatmog`imiz lozim. O`zlikni anglash milliy qadriyatlarni hurmatlash, ona tilimizni qadrlash va eng avvalo, adabiyotimizga e`tibordan boshlanadi. O`zbek adabiyotida yirik iste`dodli yozuvchi va shoirlar bisyordir. Har qanday ijodkorning badiiy mahorati u yaratgan badiiy asarlar tilida namoyon bo`ladi. Adibning hayotdagi voqea-hodisalarga munosabati, o`ziga xos dunyoqarashi, teran mulohazaviy idroqi, tabiatdagi boshqalar ko`ra olmagan ajoyib bir g`aroyibotlarni nozik his etishi hamda uni go`zal shaklda kitobxonga yetkazib bera olishi va yana ko`pgina boshqa jihatlar birgalikda badiiy asarning jozibadorligini tashkil qiladi. Ijodkorning xalq tilini chuqur bilishi, cheksiz so`z boyligiga ega bo`lishi, so`zning ta`sir qudratini his eta olishi, har bir so`zni ma`no nozikligini ilg`ab olishi so`z o`yinlaridan ustalik bilan foydalana olishi alohida o`rin tutadi.

O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so`ng ta`li – tarbiya sohasiga katta e`tibor qaratildi. Prezidentimiz Islom Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so`zlagan nutqida hayotimizni hal etuvchi muhim masalalar qatorida ta`lim – tarbiya tizimini tubdan o`zgartirish, uni yangi

⁵ Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch. Toshkent: 2008. 60-bet.

⁶ Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent: “Sharq” 1999. 81-bet.

zamon talabi darajasiga ko'tarish, barkamol avlodimiz kelajagiga daxldor Qonun loyihalari ham boorligini e'tirof etadilar.

“Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi saviyasini jahon andozalari darajasiga yetkazish, xalq xo'jaligida mutaxassisliklarga bo'lgan talab va ehtiyojlarni ilmiy tahlil asosida aniqlash, xorijiy mamlakatlar tajribasidan oqilona foydalanish shu kunning dolzarb vazifalaridandir”.⁷

Ta'limning yangi modeli ishga tushgach, insonning hayotdan o'z o'rnini topish jarayoni tezlashdi. Prezidentimiz Islom Karimov “Barkamol avlod orzusi” asarida shunday yozadi: “Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'lim – tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak”.⁸

Bugungi kunda ta'limning har bir sohasida yangiliklar, o'zgarishlar amalgam oshirilmoqda. Xususan, til va adabiyot sohasida ham yangi – yangi islohotlar olib borildi. Ijod bilan shug'ullanuvchi, ilmiy izlanishlar olib boruvchi, turli asarlar yaratuvchi shaxslarning, ijodkorlarning faoliyati ulug'landi. Adabiy tanqid sohasida ham katta ishlar amalgam oshirildi.

Adabiyot sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan S. Mamajonov, I. Sulton, M. Qo'shjonov, O. Sharofiddinov, S. Ahmad, U. Normatov, I. G'ofurov kabi adabiyotshunoslar qatorida Yo'ldosh Solijonovning ilmiy – nazariy qarashlarini, nazariyalarini alohida e'tirof etib o'tish joizdir.

Yo'ldosh Solijonov ijod bo'stoniga erta qadam qo'ydi. O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasining a'zosi, filologiya fanlari doktori, taniqli munaqqid Yo'ldosh Solijonovning ilmiy, ijtimoiy – amaliy faoliyatiga bag'ishlangan bitiklar ham talaygina.

⁷ Ilm – ziyo salohiyati - yurt boyligi. “Ma'rifat” gazetasi. 1993.

⁸ Karimov i. Barkamol avlod orzusi. – T.: Sharq. 1999., 68 b.

I – BOB.

ADABIYOTSHUNOSLIK VA UNING DOLZARB MASALALARI.

Ushbu bobda o'zbek adabiyotshunosligining yirik vakillaridan biri Yo'ldoshxo'ja Solijonovning ilm sohasiga kirib kelishi, badiiy asarda muallif nutqi va yozuvchi uslubi o'rganiladi.

Har qanday adabiy asarning badiiy yuksakligi, umri uzoqligi, o'ziga xos fazilatlar, sehri va jozibasi, birinchi navbatda, muallif nutqining qurilishida namoyon bo'ladi. San'at asarining go'zalligini aks ettiruvchi koo'zgu hisoblangan muallif nutqi badiiy asar tilining to'qimasida monolog shaklida ko'rinadi. Nutq shaklidagi bu ma'lumot individual ijodning mahsuli sifatida muallif iste'dodiga muvofiq ravishda badiiy bo'yoq oladi. Muallif nutqi turli – tuman shakllarga ega ekanligi bilan e'tiborni tortadi. Har qanday badiiy asarda bevosita muallif nutqi yakka hokimlik qilishi qiyin. Bunday nutq jarayonidan holi bo'lgan asarlar juda kam uchraydi. Shunga qaramay, bayonda asosiy yo'nalishni muallif nutqi egallaydi va o'quvchi uni asarning boshidan oxirigacha ko'rib, ovozini eshitib, hamdardligini sezib turadi.

Xullas, hozirgi o'zbek nasri nafaqat o'zining mazmundagi yangiliklari, balki shakli, xususan, badiiy adabiyotning til xususiyatlari bilan ham tamomila yangilikka yuz tutdi. Quyida ana shu yangiliklarning alohida qirralarini va muammolarini ko'rib chiqamiz.

I – BOB. 1 – FASL.

YO'LDOSH SOLIJONOVNING ILM SOHASIGA KIRIB KELISHI.

O'zbek adabiyotshunosligining yirik vakillaridan biri Yo'ldoshxo'ja Solijonov qo'l urmagan sohasi, adabiyotda u yoki bu darajada munosabat bildirmagan soha yo'q. Hech kimga sir emaski, mavzu rang – barangligi faollikni, fidoiylilikni, o' burchini chuqur tushungan fuqaro bo'lishni taqazo qiladi. Yo'ldosh Solijonovning ko'p maqolalari ana shunday chuqur fuqarolik burchi bilan sug'orilgan, alohida jo'shqinlik va fidoiylilik bilan yozilgan. Yo'ldosh Solijonov bunday mavqega erishgunga qadar mahorat maktabining sir- sinoatli va murakkab yo'lini bossib o'tdi. Maktabda o'qib yurgan paytlaridayoq badiiy adabiyotga qiziqdi, uning sehrli, go'zal olamiga kirish yo'llarini izladi. Adabiy asarlar uni maqsadi yo'lida qat'iyat bilan harakat qilishga,, tanlagan yo'lidan qaytmaslikka undardi. "Dastlabki yillarda men goh uchuvchi, goh shifokor, goh harbiy xizmatchi bo'lishni orzu qilardim. 8-sinfдан boshlab adabiyot o'qituvchisi bo'lishga qat'iy qaror qildim. Bunga quyidagi etibor sabab bo'ldi. Adabiyot o'qituvchimiz Umarjon aka Ahmadjonov (Olloh rahmatiga olgan bo'lsin) mening darslikdagi mavzularni oldindan o'zlashtirib kelishimni payqab qolib, darsga kirishi bilan yangi mavzuni elon qilardi-da, doskaga chiqarib, "qani, Yo'ldoshali, javra (biz tomonda gapiraver degani)!" der edilar. Albatta, sinfdoshlarim oldida o'zimni bilimdon ko'rsatish uchun iloji boricha ko'proq "javrardim". Ustozimiz mahtab-mahtab "5" baho qo'yar, boshqalarni ham mendek bo'lishga undardi.

Qariyb ikki yil shu zaylda o'tdi, men tuppa-tuzuk dars beradigan "o'qituvchi" bo'lib qoldim"⁹ – deydi ustoz.

O'ninchi sinfni bitirgandan keyingi uch yillik mehnat faoliyati adabiyotshunos hayotida alohida bosqich isoblanadi. Qarib, ishdan bo'shab olgan otasining rayidan o'tolmay o'qishga bora olmaydi. Dastlab qurilish brigadasida, keyin aloqa

⁹ Solijonov Y. Dil daftaridan bitiklar.—Farg'ona, 2011. 4 b.

bo'limida ishlaydi. Pochtalonlik kasbi uni ham matbuotga, ham adabiyotga bo'lgan mehrini yanada oshiradi. Mamlakatda chiqadigan barcha gazeta-jurnallar uning qo'lidan o'tar, ularni o'qimay turib tarqatmasdi. O'zi ham qiziqib, gazetalarga turli maqolalar yoza boshlaydi. Fikri charxlanib, yozish malakasini egallaydi. Bu damlarni ustozimiz shunday xotirlaydi. "Tez orada buning foydasi tegdi. Biroq bir tasodifiy hodisa ro'y bermaganida men bu foydaning natijasini ko'rmay o'tardim. Bilasiz, pochtalon qishloq kezadi, uyma-uy yuradi. hamma tanish, hamma narsa ko'z o'ngingda. Kimning qanday tashvishi bor - bilasan, qaerda nima bo'lyapti - ko'rasan. Men ham pochtalon sifatida kuniga uchta qishloqni aylanib chihaman, hatto dalalarga borib odamlarga gazeta-jurnallar, xatlar tarqataman. Albatta, yurishim bekor ketmaydi, qanday yaxshi yoki yomon narsalarni ko'rsam, darhol gazetaga yozaman. Bir kuni Pastki buloqboshi qishloqidagi bir yerda g'o'zalarni yovvoyi o't bosib ketganini ko'rib qoldim va tumanning "Paxta uchun" deb atalgan gazetasida "Bu yerlarda g'o'za o'stirmoqchi edilar-ku" sarlavhali tanqidiy maqola chiqardim. Brigadir ayol kishi bo'lib, raisga ustimdan shikoyat qilibdi. Bir kuni rais Imomnazar aka qishloq guzarida meni ushlab oldi-da, "Shu maqolangga qancha pul beradi? Ayt, mana men beraman!" dedi. "Menga pul kerakmas (chunki gazetalardan juda ko'p gonorar olardim-da! Raisning sadaqasiga zormanmi?). Undan ko'ra yeriga ishlov bersin. Bo'lmasa, yana kattaroq gazetaga yozaman" deb shakkoklik qildim (axir, komsomol edim-da!). U paytlarda matbuotning tasir kuchi juda baland edi. Unda tanqid qilingan rahbarlar biror jazo olmasdan qolmasdi. Shuning uchun ular gazeta tanqididan qo'rqishardi. Bunaqa o'jar va shakkok muxbirdan qutilishni istashdi shekilli, ertasiga bosh hisobchi meni chaqirib, "Uka, kolxozda pochtalonlik shtati qisqardi. Siz bo'shsiz" deb pattamni qo'limga tutqazishdi. Endi o'qimasam bo'lmasligiga aqlim yetdi".¹⁰

1960 yili otasining roziligini olib, Farg'ona davlat pedagogika institutining tarix-filologiya fakultetiga hujjat topshiradi. Birinchi imtihon o'zbek adabiyoti fanidan yozma-insho ekan. Omadi yurishganini qarangki, insho mavzularidan biri

¹⁰ Solijonov Y. Dil daftaridan bitiklar.—Farg'ona, 2011. 6 b.

"Oybekning "Qutlug' qon" romanidagi Yo'lchi va Gulnor obrazlariga xarakteristika" deb atalardi. Ko'zlari yonib ketadi. Ozmas-ko'pmas 14 bet insho yozadi. Oradan uch kun o'tib, uni Hasanxon Rustamov degan domla yo'qlab topadi va unga "E, sizmisiz, tabriklayman, uka! Xatingiz chiroyli, xatosiz yozar ekansiz. Jumlalar to'g'ri va puxta. Bizga shunday savodli yoshlar kerak. Alo qo'ydik, alo! qolgan imtihonlarga ham astoydil bo'ling. Muvaffaqiyat tilayman" deb omad tiladilar. O'qishga kirgandan to bitirib ketguniga qadar dekanatning shtatsiz xodimi bo'lib ishlaydi. O'qishdan keyingi paytlarda bu yerdagi mashinkani chiqillatib o'tirib, yozar edi.

Oradan ko'p o'tmay o'zbekcha matnlarni bosish uchun ustozni mamuriyatga ishga olishadi. ham o'qish, ham ish og'irlik qilgan kezlarda yana adabiyot madadkor bo'ladi. Adabiyot hayotga nekbin ko'z bilan qarashni, umid bilan yashashni irodali bo'lishni o'rgatadi. Birinchi ilmiy maqolasi 4-kursda o'qib yurgan paytlarida bosilgan edi. O'sha yillari yozuvchi Mirzakalon Ismoilov tomonidan o'zbek tiliga yangi tarjima qilinib, yoshlar o'rtasida mashhur bo'lib ketgan "So'na" romanining muallifi E.Voynich yuz yoshga to'lgandi (1964). Maqolani tayyorlab, tavakkal qilib o'zi sevib o'qiydigan "O'zbekiston madaniyati" (hozirgi "O'zbekiston adabiyoti va sanati") gazetasiga yuboradi.

"Qarangki, ozgina muddat o'tib, maqolam chiqib turibdi-da! Xursandligimni qo'yaverasiz! Keyin yozishmi?! Albatta, hamma yozganlarim ham bosilavermasdi. Ammo yozishdan, fikrlashdan to'xtamadim. Bu menga faqat foyda berdi. Ayni chog'da qanday daraja va mavqega erishgan bo'lsam, buni o'quvchilik va talabalik yillarimda shakllangan tirishqoqligim samarasi deb bilaman"¹¹ – deydi adabiyotshunos ustozimiz Yo'ldosh Solijonov. Oliy o'quv yurtida o'z kasbini qadrlaydigan, fanlarni puxta bilgan professor-o'qituvchilar mumtoz adabiyot bilimdoni Akramjon Ibrohimov, jahon adabiyotini chuqur o'rgangan va o'zbek adabiyotiga qiyoslab tahlil qiladigan Azimjon Rahimov, savodxon va ilmga

¹¹ Solijonov Y. Dil daftaridan bitiklar.—Farg'ona, 2011. 8 b.

intiluvchi yoshlarni nihoyatda qadrllovchi ustoz Hasanxon Rustamovlar qo'lida ta'lim oladi.

Institutni bitirganidan keyin uni viloyat "Kommuna" (hozir "Farg'ona haqiqati" deb ataladi) gazetasi o'z bag'riga oldi. Bu yerda bag'ri keng muharrir Abdulla Mirzaev, Farg'ona afandisi Adham Hamdam, istedodli yozuvchi Sherali Toshmatov, beg'ubor hazilkash inson Hojimat Qodirov, yosh ijodkorlarni har doim "yaxshi, yaxshi!" deb rag'batlantiruvchi saxovatli shoir Yo'ldosh Sulaymonov kabi ajoyib odamlar bilan ishlaydi va ulardan ko'p narsa o'rganadi. Ilgari gazetalarga ko'p maqolalar yozib yurgani uchunmi yoki gazeta tahririyatining ijodiy muhiti sababmi, qisqa vaqt ichida u ko'plab lavhalari, ocherklari, sher, hajviy hikoyalari va rus tilidan qilingan yumoristik tarjimalari bilan taniladi. Dastlabki asarlari o'zi faoliyat olib borayotgan gazetada, keyinroq "Mushtum" jurnalida chiqa boshladi. 1968 yil universitetda ish faoliyatini boshlaydi. Ustozlarning ishonchini oqlash ijodkor uchun sharaf edi.

Shuning uchun o'z oldiga shunday vazifa qo'yadi: "hozir 27 yoshga kirding. Bu yerda ishlashdan maqsad ilmiy ish qilish bo'lsa, 35 yoshgacha kandidatlik dissertasiyasini yoqlasang yoqlading, bo'lmasa, institutdan ketasan!" Ishdan ajralmagan holda dissertasiya ustida ish boshladim. Shukurki, bu yerdagi yaxshi odamlarning qo'llab-quvvatlashi, ilmiy rahbarim professor Salohiddin Mamajonovning qattiq qo'lligi va talabchanligi evaziga 32 yoshimda fan nomzodi bo'ldim. Shunday ustozlarning qo'liga tushganimdan faxrlanaman. Chunki avvalo, o'zining quntsizligi, qolaversa, rahbarining beparvoligi tufayli mendan oldin ish boshlaganlarni ortda qoldirib ketdim. Bu gaplarimni maqtanchoqlik qilyapti deb o'ylamasligingizni o'tinib so'rayman. Tabiatimda shakllangan bu qatiylik, intizomlilik, aytgan gapining uddasidan chiqish fazilatlari adabiyot tasirida shakllanganligini isbotlamoqchiman, xolos".¹²

Yirik adabiyotshunos Yo'ldoshxo'ja Solijonovning otasi Solijon Usmonxo'ja o'g'li bilan onasi Zaynabposhsha Tojixo'ja qizi qariyb 60 yil ahil, inoq hayot

¹² Mazkur kitob 9 b.

kechirdilar. Ular 12 nafar farzand ko'rishgan, shundan atigi to'rt kishi omon qolgan. Otasiga hurmat bilan "Mulla" nisbatini qo'shib "Mulla aka" yoki "Mulla Solijon" deb murojaat qilishardi. Ular chinakam ulamolardan bo'lib, din ilmini ham, zamonaviy yozuv va hisob-kitobni ham puxta o'zlashtirgan ziyoli dinimiz ahkomlariga qattiq rioya qiladigan, "Quroni Karim"ni bir necha marta xatm qilgan, xar qanday sharoitda ham besh vaqt namozini kanda qilmay o'qiydigan inson bo'lganlar. Ayni chog'da dadam qattiqqo'l va jahldor odam edilar.

"Dadam uchta inqilob (1905, 1917 yil fevral va oktyabr), ikkita jahon urushini, ikki bora ochlikni ko'rgan va ulardan tegishli xulosalar chiqargan odam edilar. Onam nihoyatda yumshoq tabiatli ayol bo'lganlar. So'zlaganda xalq maqollarini mo'l-ko'l ishlata, gazeta-jurnallarni ko'p mutolaa qilardilar. Shukurki, ota-onam yoshlarini yashab olamdan o'tdilar. Men ularning hayotligi chog'ida nechoqlik xizmat qildimmi, qilolmadimmi, bilguvchi Ollohdr. hozir ham ularning qabrini tez-tez ziyorat qilib, bo'lajak ishlarimga madad berishlarini so'rab turaman. Ehtimol, ishim yurishayotganligi, o'ylagan niyatlarim o'z vaqtida amalga oshayotganligi ularning roziligi va ruhining qo'llab-quvvatlab turganligidandir" - deb eslaydi ustozimiz.

Uzun qish kechalari otalari sandal atrofiga yiqilgan oila azolariga shirali ovozda goh Ibrohim Adham qissasi, goh Go'ro'g'li haqidagi va boshqa turli xalq dostonlarini o'qib berardilar. Yosh ijodkor ularni yodida olib qolib, ertasiga o'rtoqlariga xam aytib berardi. O'zi o'qimishli odam bo'lgani uchunmi yoki yakka-yu yagona o'g'lining ham o'qimishli, bilimdon odam bo'lib yetishini istaganidanmi, har qalay, kitob o'qib berishlaridan tashqari unga kolxoz kutubxonasidan ko'p kitoblar ham olib kelib berardilar.

Shunday qilib, mening tarbiyamda kitobning roli katta bo'ldi. Dadam o'qib, opkelib bergan kitoblar qatoriga maktab darsliklari, yangi badiiy asarlar qo'shildi. Adabiyotning sehrli olami meni ko'proq torta boshladi. Maktab kutubxonasi kambag'al edi, kolxoz kutubxonasini titkiladim. Dadam tufayli bu yerdagi kitoblarning ko'pini ham o'qigan ekanman. Keyin tuman kutubxonasiga qatnay boshladim. Kitoblarning qahramonlari mening hayotimga faol kirib kela boshladilar,

yashash tarzimga tasir etdilar. Men "Uch og'ayni botirlar"dek har qanday vaziyatda ham aql-farosat bilan ish ko'rishni, "So'na" singari maqsadidan qaytmaydigan irodali bo'lishni, Farg'odga o'xshab ko'proq bilim olishni va otanani qattiq hurmat qilishni, Robinzon Kruzo kabi qiyinchiliklarni yengishni va odamlarga yordam berishni o'rgandim. Tabiiyki, biz tengi avlodning shakllanishiga "Ona", "Yosh gvardiya", "Po'lat qanday toblandi", "Boy ila xizmatchi", "Qutlug' qon" asarlarining qahramonlari ham jiddiy tasir ko'rsatgandi. Aslida kitobning yomoni bo'lmaydi. Chunki har qanday asar ham ijodkor tomonidan yaxshi niyatni ko'zlab, odamlarni ezgulikka davat etish uchun yoziladi. Faqat uni mutolaa qilgan o'quvchining qabul qilish, tushunish iqtidori muhimdir. Xalqimizda "Odobni odobsizdan o'rgandim" degan hikmatli ibora bor. Asardagi qahramonlarning axloqsizligi, illatlaridan nafratlanib, ularni inkor etishning o'zi insonni ezgulikka yetaklaydi. Buning uchun kitobxonda fikrlash qobiliyati kuchli bo'lishi lozim. Ha, kitob o'qishning o'ziga yarasha masuliyati va, albatta, majburiyati ham bor. Buni xar bir inson yaxshi bilishi zarur.

Yo'ldosh Solijonov hayoti vafaoliyatining asosiy sanalari

1940 yil 11 iyul - Kuybishev (hozirgi Rishton) tumanidagi Buloqboshi qishlog'ida tug'ildi.

1947-1954 yillar - Buloqboshi qishlog'idagi A.P.Chexov nomli 7 yillik maktabda o'qidi.

1954-1957 yillar - Beshkapa qishlog'idagi Oxunboboev nomli 3-o'rta maktabni tamomladi.

1957-1960 yillar - Kirov nomli kolxozda tabelchi, Quruvchi va pochталon bo'lib ishladi.

1960-1965 yillar – Ulug'bek nomidagi Farg'ona davlat pedagogika instituti tarix-filologiya fakultetida o'qidi va uni imtiyozli diplom bilan bitirdi.

1965-1968 yillar - Farg'ona viloyati "Kommuna" (hozirgi "Farg'ona haqiqati") gazeta redaksiyasida adabiy xodim bo'lib ishladi.

1968 yil fevral - Farg'ona davlat pedagogika instituti o'zbek adabiyoti kafedrasining o'qituvchisi lavozimiga qabul qilindi.

1969-1972 yillar - institutning ko'p nusxali "Pedagog" gazetasiga muharrirlik qildi.

1974 yil may - filologiya fanlari doktori S.Mamajonov ilmiy rahbarligida "o'zbek sovet prozasida avtor nutqining shakllanishi va yozuvchining shaxsiy uslubi" mavzusida nomzodlik dissertasiyasini himoya qildi. Shu yilning 27 dekabridagi OAK qarori bilan filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasi berildi (MFL № 009374).

1980 yil 16 aprel - Oliy attestasiya komissiyasining 16d/30-bayonnomasiga ko'ra o'zbek adabiyoti kafedrasida bo'yicha dosentlik ilmiy unvoni berildi (DS № 035554).

1982-1986 yillar – o'zbek adabiyoti kafedrasining mudiri lavozimini bajardi.

1984 yil - "Mohir san'atkor" nomli ilk kitobi nashr qilindi (f.f.n. S.Toshkanov bilan hamkorlikda).

1987-1989 yillar - o'zbek filologiyasi fakulteti dekanining o'rinbosari bo'lib ishladi.

1989-1993 yillar - o'zbek adabiyoti kafedrasining mudiri.

1991 yil - "O'zbekiston respublikasi xalq maorifi a'lochisi" nishoni bilan taqdirlandi.

1997-2010 yillar - Farg'ona davlat universiteti o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasining mudiri lavozimida mehnat qildi.

2001 yil - universitet ilmiy Kengashining qarori bilan "Universitetda xizmat ko'rsatgan dosent" faxriy unvoni berildi.

2002 yil sentyabr – O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'ziligiga qabul qilindi.

2003 yil - "XX asrning 80-90-yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi" mavzusida doktorlik dissertasiyasini himoya qildi. Respublika Oliy attestasiya komissiyasining 25 dekabrdaqi qarori bilan filologiya fanlari doktori ilmiy darajasi berildi (04 № 003716).

2002 yil yanvar - "Qalb sadosi" gazetasi tahririyati azosi.

2004 yil yanvar - FarDU "Ilmiy xabarlar" tahririyati azosi.

2009 yil yanvar - Andijon davlat universiteti "Ilmiy xabarnoma" jurnali tahririyatining a'zosi.

2010 yil yanvar - "Sharq yulduzi" jurnali jamoatchilik Kengashining a'zosi.

2010 yil dekabr - universitet rektorining buyrug'iga asosan kafedra professori lavozimiga o'tkazildi (buyruq № 146-k).

Yo'ldosh Solijonov xayotiy amollaridan namunalar:

- Egilganga egilaman - boshim yerga tekkuncha. Kekkayganga kekkayaman – boshim ko'kka yetguncha.
- Va'da berdimmi, albatta, bajaraman. qo'limdan kelmasa, ming bora xafa bo'lsalar ham va'da bermayman.
- Biron ishni boshlashdan oldin tugatish muddatini belgilab olaman. Aytilgan muddatda bajarmaguncha tinchimayman.
- Qat'iy rejim hamda reja asosida ishlayman va yashayman. har kuni ertalab soat 5 dan 6 gacha badantarbiya bilan shug'ullanaman. Soat 6 dan 7 gacha ilmiy-tadqiqot bo'yicha rejalashtirilgan ishlarimni qilaman yoki kitob o'qiyman.
- Kishining kamchiligi bo'lsa yoki davrada noto'g'ri gap aytsa, darhol yuziga aytaman. Bu odatim ko'pchilikka maqul tushmaydi va arazlab yurishadi.
- Ish faoliyatimda har doim namuna ko'rsatib ishlashga harakat qildim. O'z o'zim va ovozinga ega bo'lishga intildim. Manmansirashdan Xudoning o'zi asrasin!

Y o' l d o s h x o' j a S o l i j o n o v n i n g monografiya, risolal, o'quv-uslubiy qo'llanmalari hozirgi kunga qadar 15 dan ortiq bo'lib, ular:

1. Mohir sanatkori. T., "O'zbekiston" nashriyoti, 1984 (S.Toshkanov bilan hamkorlikda).
2. She'riyatning sirli jilvalari. "So'z mas'uliyati" nomli adabiy-tanqidiy maqolalar to'plami. T., G'.G'ulom nomidagi ASN, 1986. 92-148-betlar.
3. Tong yulduzlari. Farg'ona, 1995.
4. Milliy istiqlol g'oyasini o'rganishning bazi dolzarb muammolari. Farg'ona, 2001
2. (N.Sobirov bilan hamkorlikda).
5. Nutq va uslub. T., Cho'lpon nomidagi nashriyot, 2002.
6. XX asrning 80-90-yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya avtoreferati. T., 2002.
7. Olimning olami. Farg'ona, 2004.
8. Farg'ona adiblari. Farg'ona, 2005.
9. Zulmatdan nur qidirganlar. T., A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxona nashriyoti, 2007.
10. Men Sizdan saboq oldim (adiblarga maktublar). T., A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxona nashriyoti, 2007.
11. So'z sehgari. T., "Nihol" nashriyoti, 2007.
12. Chingiz Aytmatov - inson va tabiat kuychisi. Farg'ona, 2009 (T.Abdukarimov bilan hamkorlikda).
4. hamkorlikda).
13. Hozirgi o'zbek lirikasi. Farg'ona, 2009.
14. Hamid Olimjon ijodini o'rganish. Farg'ona, 2009 (A.Sabirdinov bilan hamkorlikda).
15. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. Andijon, "Hayot" nashriyoti, 2010 (H.Yo'lchiev, A.Yo'lchievalar bilan hamkorlikda).

Olimning ma'sul muharrirligida 13 ta to'plam nashr qilingan. Ular :

1. 70-80-yillar o'zbek prozasida uslubiy izlanishlar. T., 1985.

2. O'zbek sovet adabiyotining rivojlanishida H.H.Niyoziy ijodining asosiy yo'nalishi. T., 1989.
3. Ogohlik sirlari (Ogahiy tavalludining 190 yilligiga bag'ishlangan ilmiy maqolalar to'plami). Farg'ona, 1999.
4. Badiiyat ummoni (A.Navoiy tavalludining 560 yilligiga bag'ishlangan ilmiy maqolalar to'plami). Farg'ona, 2001.
5. G'afur G'ulom - shoir, yozuvchi va olim. Farg'ona, 2003.
6. "Cho'lpon hayoti va ijodini o'rganish" bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanmasi. Farg'ona, 2003 (muallif T.Abdukarimov).
7. Farg'ona davlat universiteti olimlari. Farg'ona, 2003.
8. Badiiyat ummoni (A.Navoiy tavalludining 565 yilligiga bag'ishlangan ilmiy maqolalar to'plami). Farg'ona, 2006.
9. o'zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari (taniqli adabiyotshunos olimlar A.Ibrohimov va A.Rahimovlar xotirasiga bag'ishlangan ilmiy maqolalar to'plami). Farg'ona, 2006.
10. Serqirra iste'dod sohibi (A.Qahhor tavalludining 100 yilligiga bag'ishlangan ilmiy maqolalar to'plami). Farg'ona, 2007.
11. Uzluksiz talim tizimida Abdulla Qahhor ijodining o'rni. Farg'ona, 2008.
12. Barhayot siymo (Ch.Nizomiddinovaning Boki hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy risolasi). Farg'ona, 2010.
13. Badiiyat ummoni (A.Navoiy tavalludining 570 yilligiga bag'ishlangan ilmiy maqolalar to'plami). Farg'ona, 2011.

To'plamlardagi maqolalari 60 dan ortadi. Ularning ayrimlari bilan tanishib chiqamiz:

- Avtor nutqi va psixologik tasvir // Ijodiy jarayon va adabiy individuallik. T., 1980.
- Xalq og'zaki ijodi asarlarida psixologik tasvir usullari // Yetmishinchi yillar o'zbek prozasida an'ana va mahorat. T., 1987.

- Lirik qahramonning kamolot yo'llari // o'zbek sovet adabiyotining rivojlanishida H.H.Niyoziy ijodining asosiy yo'nalishi. T., 1989.
- O'zbek milliy xarakterining shakllanishida adabiyotning roli // o'zbek xarakterining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. T., 1999.
- "Otamdan qolgan dalalar" romanida nutq shakllari // Adabiy aloqalar bo'yicha Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. T., 2000.
- Erk kuychisi // Cho'lpon: hayoti va ijodiy merosi. Andijon, 2000.
- Alisher Navoiy asarlarida qahramonlar yoshi va psixologiyasi // Badiiyat ummoni. Farg'ona, 2001.
- Hozirgi o'zbek nasrida ayollar nutqi muammolari // Ekologiya va ayol. Farg'ona - 2001.
- Hozirgi o'zbek prozasida nutq shakllari // o'zbek filologiyasi materiallari. T - 2002.
- Nutqiy jarayondagi yangiliklar // O'zbek filologiyasi masalalari. T - 2002.
- Zamon, iste'dod va imkoniyat // G'afur G'ulom - shoir, yozuvchi va olim. Farg'ona - 2003.
- Yozuvchining zamon va qahramonga munosabati // G'afur G'ulom - shoir, yozuvchi va olim. Farg'ona - 2003.
- Mamajonov Salohiddin // O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 5-jild.T - 2003.
- Nutq madaniyati // O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 6-jild.T - 2003.
- Ocherk // O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 6-jild.T - 2003.
- Peyzaj // O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 7-jild. T - 2004.
- Personaj // O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 7-jild. T - 2004
- Pragmatika // O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 7-jild. T - 2004.
- Adib uslubining o'ziga xosligi // Oybek ijodining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati.
- Ikki ovozli nutq // o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari. Farg'ona - 2005.
- So'z qudrati // o'zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari. Farg'ona - 2006.

- Detallar tilga kiringanda. O'zbek adabiy tanqidi tarixi. Antologiya. T., "Turon - iqbol" nashriyoti. 2011.

Jurnallarda e'lon qilingan maqolalari esa 70 dan ortiq. Masalan, "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida:

- Yozuvchining qahramonga munosabati ;
- "Qotilning tug'ilishi"dan "Sarob"ga ;
- Mehnat - mahorat ko'zgusida;
- Badiiy nutq;
- San'atkor mas'uliyati;
- Hozirgi o'zbek nasrida nutq shakllari

"Sharq yulduzi" jurnalida:

- Ohanglar sehri;
- Ona yurt oshig'i ;
- Har shoirning o'z dunyosi ;
- Insoniylik mohiyati;
- Ijod - jasorat, she'r – joziba;
- Ijodning sodiqa hamdami;
- "Boshsiz odam"ning takomillashuvi;
- Gurunglashish bahona... ;

Bundan tashqari yana o'nlab jurnallarda ijodkorning maqolalarini uchratish mumkin.

Gazetalardagi maqolalarining soni esa 250 dan ortiq:

- Badiiy asarda satira va yumor;
- Baxt va shodlik kuychisi;
- Buyuk inson madhiyasi;
- She'riyatning dilrabo qaddi;
- Quyosh va nur kuychisi;
- Ruhiy yangilanish ;
- Adabiyot hammaga kerak ;

- Adabiyot so'zi;
- Aniqlik fazilati ;
- Ustoz va shogirdlik maqomi;
- Tarbiyaviy soatlar;
- Tarbiyaviy soatlar;
- Ustozidan duo-yu qarg'ish olgan shogirdlar .
- Daryodek tiniq, osmondek beg'ubor;
- Masal sog'inchini ;
- Baxt kuychisi baxtli edimi?
- "G'uncha yangliq burkanib..."
- Tarozini to'g'ri tortish ehtiyoji;
- Gullayotgan chamanzor;
- Ruh bulbuli navolari;
- "Odob talimda yagona" ijodkor;
- Milliylik va badiiylik talablari;

Ijodkor hamon izlanish yo'lida. Biz ulardan yangi – yangi monografiyalar, risolalar, maqolalar kutib qolamiz.

I. 1. BADIY ASARDA MUALLIF NUTQI VA YOZUVCHI USLUBI.

Badiiy asarda muallif nutqi va yozuvchining uslubi o'ziga xos muhim ahamiyatga ega. Nutq va uslub muallifga tegishli ekan, ya'ni uning xususiy mulki bo'lib, bu mulkka boshqalarning hissa qo'shishga haqqi yo'q ekan, soddagina qilib, "ob'ektiv muallif " yoki "bevosita muallif nutqi"¹³ deb atashni adabiyotshunos Yo'ldosh Solijonov taklif qiladi. Tadqiqotchi Z.Rahimov bu nutq shaklini "Muallifning holis nutqi"¹⁴ deb ataydi.

Muallif nutqi tarkibiga qahramon tiliga oid so'zlar kiritilgani, biroq unda ilgari surilgan asosiy g'oya, fikr, bayon qilish uslubi, tizimi muallifga tegishli bo'lganligini hisobga olib "bilvosita muallif nutqi" yoxud "sub'ektiv muallif nutqi" deb atash o'rinli ekanligini tadqiqotchi olim Yo'ldosh Solijonov alohida ta'kidlab o'tadilar. Chunki bu nutq xazinasining boyishiga asarda ishtirok etuvchi qahramonlardan biri o'z hissasini qo'shgan hisoblanadi. Yo'ldosh Solijonov muallif nutqining uch shaklini izohlab o'tadi. Ular:

Birinchi shakl faqat muallifga tegishli ekan, ya'ni uning xususiy mulki bo'lib, bu mulkka boshqalarning hissa qo'shishga haqqi yo'q ekan, soddagina qilib, "ob'ektiv muallif " yoki "bevosita muallif nutqi" deb ataydi.

Ikkinchi shakl, ya'ni muallif nutqi tarkibiga qahramon tiliga oid so'zlar kiritilgani, biroq unda ilgari surilgan asosiy g'oya, fikr, bayon qilish uslubi, tizimi muallifga tegishli bo'lganini hisobga olib " bilvosita muallif nutqi " yoxud "subyektiv muallif nutqi" deb atashni o'rinli biladi.

Uchinchi "noxususiy to'g'ri bo'lmagan nutq" shaklini esa hech ikkilanmasdan "o'zganing nutqi" deb nomlashni ma'qul ko'radi. Sababi, bunday nutq tarkibida, yuqorida aytganimizdek, ayni chog'dagi suhbatga, voqeaga qatnashmayotgan begona shaxsning so'zlari kiritilgan bo'ladi"¹⁵.

Taklif qilinayotgan birinchi shakl atamasini ifodalagan ibora o'z-o'zidan

¹³ Solijonov Y. XX asrning 80-90-yillari ўzbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun ёzilgan dissertatsiya avtoreferati. T., 2002.

¹⁴ Rahimov Z. "Ko'hna dunyo" romani poetikasi. Dissertatsiya avtoreferati. T., 2000.

¹⁵ Solijonov Y. Nutq va uslub. – T., 2002.

tushunarli: muallif nutqiga hech kim aralashmaydi, o'zi holis hikoya qiladi. Ikkinchi shakl atamasidagi so'z ma'nosidan anglashilib turganidek, muallif nutqi yo'nalishiga hramonning so'zi, fikri, qarashi, iborasi singdirilgan bo'ladi va muallif fikrini o'quvchiga to'laroq yetkazish uchun unga qahramon vositachi bo'lib xizmat qiladi.

To'g'ri, har qanday badiiy asarda bevosita muallif nutqi yakka hokimlik qilishi qiyin. Bunday nutq jarayonidan holi bo'lgan asarlar juda kam uchraydi. Shunga qaramay, bayonda asosiy yo'nalishni muallif nutqi egallaydi va o'quvchi uni asarning boshidan oxirigacha ko'rib, ovozini eshitib, hamdardligini sezib turadi.

80 - 90yillar o'zbek nasrida muallif nutqi o'zining birlamchi vazifasi bo'lgan voqelikni to'g'ridan - to'g'ri bayon etuvchilik xizmatidan bir qadar chekinadi. Endi u qo'shimcha ravishda bir yo'la voqelikni baholash, qahramonlarga munosabat bildirish, qahramonning ichki kechinmalarini chuqurroq tahlil etish, kengaytirish kabi xizmatlarni ham o'z ichiga ola boshladi. Yozuvchi o'z o'quvchisini yetaklab, voqea sodir bo'layotgan joy, zamon va makon, tabiat manzaralari hamda asarda ishtirok etuvchi qahramonlar bilan tanishtiradi. Ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, xulq-atvori, xatti - harakatlari to'g'risida ma'lumot beradi, ularni izohlaydi va munosabat bildiradi. Bevosita muallifning yordami bilan o'quvchi asarning syujetini to'laroq anglab oladi, qahramonlarning ichki olamidan ogoh bo'ladi. Tabiat ko'rinishlaridan zavqlanadi, odamlarning ovozini eshitadi, tuyg'ularini his qiladi. Mabodo muallif o'z uslubiga ega bo'lmasa, uning yozuvchiligi to'g'risida gap bo'lishi ham mumkin emas. Agar uning o'z tili, uslubi shakllangan bo'lsagina yozuvchiligiga umid bog'lash mumkin. "Asarning nutq tuzilishida badiiy uslubning barcha fazilat hamda xususiyatlari mujassamlashgan bo'ladi"¹⁶ – deydi Yo'ldosh Solijonov. Bu vazifani ado etishda yozuvchi shoirga qaraganda ancha qiyin holatni boshidan kechiradi. O'zbek nasrining juda ko'p namunalari ekspozitsiyani tasvirlashdan, ya'ni muallifning voqelik ro'y beradigan joy hamda unda ishtirok etuvchi qahramonlarni tanishtirishdan boshlanadi. A. Qodiriy, Said Axmad,

¹⁶ Solijonov Y. XX asrning 80-90-yillari ўzbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т., 2002.

Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Hamid G'ulom, Mirmuhsin, Shukur Xolmirzayev kabilar o'z asarlarini o'quvchini voqelik o'rni va unda ishtirok etuvchi qahramonlar bilan tanishtirishdan boshlaydilar. Bu xildagi asarlarda muallif obrazi ko'zga ochiq tashlanadi. Bu bevosita muallif nutqi orqali anglashiladi. Kitobxon ma'lum bir asarni mutolaa qilar ekan, u doim muallif ko'rinmasdan o'z asarining hamma yerida mavjud ekanligini his qilib turishi lozim. Qahramonlarning holatini, qalb iztiroblarini tasvirlash chog'ida muallif ham iztirob chekadi va bu holat o'quvchiga ham yuqadi. Muallif uchun asarda masalaning, g'oyaviy maqsadning yechilishi emas, balki uning qo'yilishi muhim hisoblanadi. Zero, u asarda tasvirlanayotgan hayotiy muammolar to'g'risida o'z fikrini ochiq aytishi shart emas, balki u aytmoqchi bo'lgan fikrni o'quvchining o'zi anglab yetishiga imkon yaratishi lozim. Shu bilan adib kitobxonning muallif bilan faol aloqaga kirishuvini ta'minlaydi, uning mushohada yuritish qobiliyatini oshiradi, o'zaro muloqot vaziyatini vujudga keltiradi.

"Demak, muallifning tasvirlanayotgan voqea va qahramonlarga loqaydligi loqaydlik, betaraflik emas, balki o'quvchining fikrini aktivlashtiruvchi, qalb zarbini harakatga keltiruvchi vositadir"¹⁷- deb ta'riflaydi, Hotam Umurov.

Agar muallif o'quvchiga qiziqarsiz, keraksiz, ya'ni u biladigan, tanish bo'lgan, ammo yo'qtirmaydigan narsa yoki hodisalar to'g'risida oddiy fikr yuritsa, laqmalik qilsa, arzimagan voqeani ko'tarinki ruhda hikoya qilsa, kitobxonga erish tuyiladi. Aksincha, xolis, turmush manzaralarini boricha, tabiiy tarzda hikoya qilsa, o'quvchi uning aytganlariga ishonadi. Asarda muallifning o'zi ko'rinmasdan faqat hayot tarzi bevosita tabiiy aksini topsa, turli-tuman ranglari, jilolari bilan namoyon bo'lsa, tasvir shunchalik ishonarli bo'ladi. Bu esa birinchi navbatda, muallif holisligi bilan bog'liq holatdir. Xolislikni vujudga keltirish uchun yozuvchi bayonni o'z nutqi orqali ifodalashi maqsadga muvofiqdir. Zero, ustozimiz Yo'ldosh Solijonov ta'kidlaganlaridek: "Hayot muallif nutqida o'z xolis tasvirini topgandagina o'quvchi uni esidan chiqaradi, ya'ni asarni mutolaa qilish jarayonida kitobxon unda muallif

¹⁷ H. Umurov. Badiiy psixologizm va hozirgi o'zbek romanchiligi.- T., 1983. 100-b.

aytmoqchi, ilgari surmoqchi bo'lgan fikrlarini uning obrazlar tizimidan, qalamga olingan voqea - hodisalarning mantiqiy rivojidan, qahramonlarning iroda yo'nalishi qay darajada yoritilishidan anglab oladi"¹⁸.

Haqiqatdan ham muallif nutqida borliq, hayot o'zining xolis aksini topgandagina o'quvchi asarni mutolaa qilish jarayonida muallif aytmoqchi bo'lgan fikrini obrazlar tizimi orqali, voqea - hodisalarning mantiqiy rivojidan anglab oladi. Natijada asarda tasvirlangan hayot to'g'risida o'zi ma'lum xulosa chiqaradi, unda qo'yilgan masalalarni, muallif ilgari surmoqchi bo'lgan g'oyani anglab yetadi. Ayni chog'da qahramonlarga nisbatan munosabati tiniqlashadi, ularni o'zi bilib olib, ongli ravishda yaxshi yoki yomonga ajratadi. Mabodo, yozuvchi asarda o'z - o'zicha tabiiy rivojlanayotgan hayot tasviriga aralashaversa, o'quvchisiga o'z nomidan izoh bera boshlasa, asarning ta'sir kuchi ham, o'quvchining fikrlash faolligi ham susayadi. Chunki bunday jarayonda o'quvchi obrazlarning bevosita xatti- harakatini, o'z-o'zini kashf etishini, ruhiy olamini emas, muallifning o'zini, uning bil vosita munosabatini ko'radiki, bu hol uning tafakkurida aks sado uyg'otadi. Boisi muallifning o'rinsiz aralashuvi garchi bilimimizni ma'lum darajada boyitishga va qahramonlar xatti-hara katlarini hamda holatini, taqdirini tushunib olishimizga ko'maklashgandek tuyilsada, aslida o'quvchida estetik zavq uyg'ota olmaydi. "XX asr boshlarida dunyoga kelgan nasriy asarlarning o'ziga xosligi shundaki, ularda qalamga olingan voqealar mohiyatini asarda ishtirok etuvchi qahramonlarning o'zaro suhbatidan yoki yagona muallif axborotidan bilib olamiz"¹⁹. Berilayotgan axborot shunchaki yuzaki bo'lib qolmasligi uchun muallif hayotni chuqur bilishi va uni butun murakkabligi bilan tahlil qila olishi, axborotda ishlatilgan so'zlar vositasida inson tuyg'ulariga bevosita ta'sir o'tkaza olishi kerak. Buning uchun har bir iste'dodli yozuvchi o'z asariga alohida e'tibor berishi, uni obrazli iboralar bilan boyitishi, tasvir ta'sirchanligini oshirishga harakat qilishi talab etiladi. Ana shundagina berilgan ma'no asar qimmatini oshiradi. Shu o'rinda tadqiqotchi

¹⁸ Solijonov Y. XX asrning 80-90-yillari ўzbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Filologiya fanlari doktori ilmiy dаражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т., 2002.

¹⁹ Solijonov Y. XX asrning 80-90-yillari ўzbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Filologiya fanlari doktori ilmiy dаражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т., 2002.

ustozimiz Yo'ldosh Solijonov Said Ahmadning "Jimjitlik", O. Yoqubovning "Diyonat" "Oqqushlar, oppoqqushlar", O'. Hoshimovning "Ikki eshik orasi", M. M.Do'stning "Lolazor", A. Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanlarini tahlil qiladilar. Tilga olingan romanlarda yozuvchi pozitsiyasi to'g'ridan - to'g'ri ifodalanadi, qahramon nuqtai nazari esa ayrim o'rinlardagina namoyon bo'ladi. Ularning hech birida muallif nutqiga qahramonlar ovozi singdirilmagan. Zotan, mualliflar bu yerda qahramonlar fikri va qarashlarini izohlashni o'z zimmlariga olmaydi. Bayon markaziga asosan muallif nuqtai nazari chiqadi. Shu munosabat bilan o'quvchi asarda har doim muallif obrazini to'la his qilib turadi.

“O'zbekiston xalq yozuvchisi O'. Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanida esa bir voqeaga guvoh bo'lgan uch-to'rtta qahramonning hikoyasi beriladi. Bunda nutqning mazmunidagi munosabat shakli birinchi o'ringa chiqadi. Bu munosabat orqali kitobxon turli tomondan go'yo projector nurlari bilan yoritilgan bir voqelik mohiyatiga emas, ayni paytda ana shu voqelikda harakat qilayotgan insonni ham kashf etadi”²⁰. Bu jarayonda esa yozuvchi o'zini mutlaqo namoyon qilmaydi, kerakli xulosani o'quvchining o'zi chiqarib olishiga imkon yaratadi.

Muallif dastavval qahramonlarning tashqi qiyofasini chizadi va mana shu portretning o'zidayoq muallifning qahramoniga munosabati ayon bo'ladi. Agar roman boshlarida yozuvchi qahramonini o'zi ta'rif – tavsif etgan bo'lsa, keyinroq unga to'xtalib o'tilmaydi. Shu o'rinda A.Qodiriyning o'zbek adiblari orasida birinchi bo'lib muallif bayoni tarkibiga o'zgalarning bahosi orqali ta'riflash usulini olib kirganligini va uni tobora kengaytirib borganligini ta'kidlab o'tish o'rinlidir. Bu usulni biz hozirgi o'zbek adabiyotining iste'dodli vakili O'tkir Hoshimov ijodida qayta jon ato etgan, rivojlangan, yanada sayqal langan va boyigan holda ko'ramiz.

Oybek bilan Abdulla Qahhor ham kitobxonni voqealarning boshlanishidanoq qahramonlari bilan tanishtiradilar. Lekin ularning tasviridan biz hali bu xarakterlarning qandayligi haqida to'la ma'lumot olmaymiz. Muallif bahosi qahramonning keyingi xatti harakatlari va fe'l - atvoriga mos yoki zid ekanligi

²⁰ Solijonov Y. Nutq va uslub. – T., 2002.

voqealar rivojida anglashila boradi. Bu adiblar qahramonga munosabat bildirishda o'zlarini iloji boricha holis tutadilar, ijobiy qahramonni ham, salbiy obrazni ham o'quvchi hukmiga havola qiladilar. XX asr o'zbek adabiyotining tamal toshini qo'ygan bu adiblar tomonidan ishlab chiqilgan va adabiy iste'molga olib kirilgan yuqoridagi yangi fazipatlarni ularning izdoshlari izchil davom ettirdi va boyitdi. "Hozirgi paytda o'nlab adiblarning asarlari nasriy nutq tiplari va shakllarining g'oyat rang - barangligi bilan e'tiborni tortadi. Agar A.Muxtor, S.Ahmad, G'.G'ulom, Mirmuhsin, P.Qodirov, O.Yoqubov, Sh.Xolmirzaev kabilar ijodi uchun muallif "meni" ning yaqqol ko'zga tashlanishi asosiy fazilat hisoblansa, O'Hoshimov, O.Muxtor, M.M.Do'st, M.Mansurov, T.Murod, X.Do'stmuhammad singari ijodkorlarning asarlari bir necha hikoyalash shakllarining qorishmasidan tashkil topganligi bilan ajralib turadi"²¹— deydi Yo'ldosh Solijonov.

Badiiy tasvir asosan muallif nutqi orqali yaratiladi va bu ijodkor uslubini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Yozuvchi o'zi yaratayotgan tasvir voqelikning biror qirrasini yoritib oladimi, yo'qmi, keying sahifalarda avval qo'llanilgan tafsilot hamda dalillarni inkor etadigan, xiralashtiradigan hollarga yo'l qo'ymasligi lozim bo'ladi. Yorqin badiiy tasvir o'quvchini to'lqinlantiradi, uni voqealar oqimiga, ehtiroslar olamiga olib kiradi, kishi ko'z o'ngida jonli manzaralar, tirik qiyofalarni gavdalantiradi. Aksincha, tasvirdagi sun'iylik, zo'rma-zo'rakilik kitobxonning asarga bo'lgan ishonchini susaytiradi. Badiiy tasvirning ajralmas qirralari hisoblangan peyzaj, qahramonlar holati, kayfiyati, tasavvurlarini ifodalash muhim hisoblanadi.

Mana shu tasvirlarning o'zidayoq yozuvchi butun asar ruhini belgilovchi ohangni, roman mundarijasiga singdirilgan g'oyaviy niyatini bera oladi. Chinakam mahoratli yozuvchi badiiy tasvirni asarga faqat ko'rgazma maqsadida kiritmaydi, balki uning zimmasiga katta ma'naviy g'oya yuklaydi, asarning umumiy havosini yaratishga xizmat qildiradi, aks ettirilayotgan davrning mazmun va ruhini singdirib yuboradi, unga xos detallarni qo'llaydi. Bu fikrlarni isboti uchun Yo'ldosh

²¹ Solijonov Y. Nutq va uslub. — T., 2002.

Solijonov mazmu- nan bir - biriga yaqin bo'lgan qqquyidagi tasvirlarni solishtirib ko'radi:

"Tog'lar pastak qoyalar bilan o'ralgan. Qoyalar uchi xuddi salom berayotgandek egilib, qor va yomg'irlardan to'sib turardi. Bir yon tubsiz jar. Bahaybat archalarning qurigan mallarang shoxlarida kechalari boyo'g'lining xunuk sayrashini eshitiladi. Etlarni jimirlatib yuboradi. Ammo tong mahali ohanglarga to'lib ketadi. Tongotar paytda bulbullar paydarpay sayraydi. Toshidan - toshga sakrab kiyiklar podasi jarlikka suv ichgani o'tib ketadi. Osmoni falakda burgut qanotini tarang yozib uchadi. Hali hech kimga yuzini ko'rsatmagan quyosh tig'i uning qanotiga tushadi. Go'yo burgut qanotini olovli nurda qarayotganga o'xshab ketadi. Tullab, xunuk tortgan tulkilar sahar payti g'aflat bosib mudrab qolgan qushlarni tishlab o'tadilar. Yovvoyi mushuklar o'zlarini oftobga solgani cho'qqi tomonga o'rmay boshlaydilar..."²².

"Qoq o'rtasidan katta soy o'tgan ulkan qishloq, bir-biriga tutashib ketgan mevazor bog'lar go'yo beshafqat yong'inda qolganday lovullab yonardi. Qirmizrang o'rikzorlar orasida nafis tillarang bedazorlar, hanuz ko'm-ko'k chinorlar, kumushrang yaproqlari hali to'kilib bitmagan oq teraklar ko'zga tashlanar, buning hammasi kuz oftobining iliq nuriga cho'milib, go'yo ona bag'ridagi go'dakday erkalalar edi. Uy va qo'ralar tutash bog'lar orasida deyarli ko'rinmas, faqat qishlog' o'rtasida bir mahallar "Kent" deb atalgan qadimgi qal'a o'rnidagi maktab binosi bilan undan sal beriroqdagi kasalxona va magazin binolari elas-elas ko'zga chalinardi"²³. Mazmun va tasvir yo'nalishi jihatidan bir - biriga o'xshash mazkur parchalar ixcham, lo'nda, tugal ma'no anglatadigan jumlar tuzish, tabiat manzaralarini shoirona his etish va obrazli iboralarda tasvirlash, badiiy tasvir vositalaridan iloji boricha unumli foydalanish Said Ahmad ijodiga, quyosh botishi arafasidagi quyuq ranglarni bosiqlik bilan uzun va murakkab gap qurilmasi shaklida bimalol hikoya qilish Odil Yoqubovning uslubiga xos xususiyatdir. Har ikkala matnda muallif nutqida qo'llanilgan har bir so'z tasvirda ma'lum bir estetik vazifani

²² Said Ahmad "Jimjitlik" -T., 92-93-b.

²³ Odil Yoqubovning "Oqqushlar, oppoqqushlar..." - T., 13-b.

bajaradi, bir-birini to'ldiradi, boyitadi va davom ettiradi. Ushbu parchalardagi ohang ruhidan anglashilib turgan ajoyib shoironalik, ko'tarinkilik, tasvir ko'lamini kengroq qamrab olishga intilish, narsa va buyumlarga nisbatan sifatlashlarni iloji boricha ko'proq qo'llash Said Ahmad asarlaridagi muallif nutqining o'ziga xos fazilatiga aylanadi. Har ikkala tasvirda ham emotsionallik bilan ekspressivlik kuchli bo'lib, ularda qahramonlar kayfiyatini ilg'ab olish qiyin emas. Garchi berilgan parchalarda qahramonlar ishtirok etmasada, shu manzaralar orqali ularning ichki dunyosi, kayfiyati o'quvchiga oson anglashiladi. Bu misollardan anglashilib turibdiki, tasvirning tiniqligi va g'oyaviy - estetik salmog'i san'atkorning badiiy mahorati bilan chambarchas bog'liqdir. Badiiy mahorat esa "chiroyli iboralar, chiroyli ifodalar, antiqa voqealar, kulgili yoki qayg'uli holatlar topish emas, xalqqa aytadigan zarur so'zimizni kitobxonning qalbiga olib kiradigan obrazlar yaratish demakdir"²⁴.

Asardagi muallif nutqi o'zining haqiqiy joziba kuchi bilan kitobxonni maftun etishi mumkin. Chunki unda badiiy obrazlilik, individuallikka intilish kabi fazilatlar ustuvor bo'ladi. Bu fazilatlar esa bir - biri bilan chambarchas bog'lanib ketgan bo'lib, nihoyatda aniq, serma'no so'zlar obrazli ifodalarni tashkil etadi. "His - tuyg'ular bo'yoqi bilan to'ydirilgan obrazlilik o'quvchi hissiyotiga chuqur ta'sir etadi, xotirasiga mahkam o'rnashib qoladi. Chunki u bir yo'la ko'rgazmalilik, manzaralar go'zalligi, aniqlik, predmetlilik xususiyatlarini o'zida mujassam etadi. Xuddi mana shular tasvirning individualligi va takrorlanmasligini ta'minlaydi. Har bir asar shartli ravishda ijodiy tafakkur mevasidir. Bu tafakkur tarzi o'ziga xos shaklda nutq orqali namoyon bo'ladi hamda adabiy tur va janrlar talablariga ko'ra yorqin ekspressivlik, holislik va ko'p ma'nolilik kasb etadi"²⁵ – deb yozadi, adabiyotshunos ustozimiz Yo'ldoshxo'ja Solijonov. Haqiqatdan ham estetik qimmatini yuqori bo'lgan asarlardagi obrazli iboralar tizimida ifodalangan hayot manzaralari sirtdan juda sodda ko'rinsada, odatda g'oyat murakkabligi bilan

²⁴ A. Qahhor. Asarlar, VI tomlik, 6tom. T., 1970. 411b.

²⁵ Solijonov Y. XX asrning 80-90-yillari ўzbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Filologiya fanlari doktori ilmiy dаражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. T., 2002.

e'tiborni tortadi. Bunga misol tarzida ustozimiz Murod Muhammad Do'stning "Lolazor" romanidan olingan qqquyidagi parchani tahlil qilib beradi:

"Osmon mezonlardan yiltirar edi. Yigirma yil avval edi, kuz edi, yer-u osmon tiniq edi. Va havoda o'rgimchak iplari ohista suzardiki, Nazar Yaxshiboevning xayoliga ayni chiroyli o'y keldi. Kelgani barobar dilga joylashdi – go'yo ro'molcha uchini tugun qilib tugdi.

Keyin do'stlariga gapirib yurdiki, e birodarlar, Bulduruqqa borib g'aroyib manzara ko'rdim, shu desangiz, tiniq kuz osmoni mezonlardan yiltirab yotardi. Do'stlar aslida u qadar do'st ham emasdi, Yaxshiboyevdan qo'rqishardi, xolos. Shu boiski, ma'qul, deb aytishdi, ayni ko'hli jumla bilan roman yoki qissa, juda bo'lmaganda uzunroq hikoya boshlasa bo'larkan, nozik, xo'b nozik!..." . Biz ushbu misolda obrazli so'z va iboralarni shuning uchun ta'kidlab ko'rsatdikki, aslida shu hissiy tasvir vositalari juda ham salmoqli emasdek tuyilsada, yaxlit olganda bu manzara va holat favqulotda obrazli bo'lib, emotsional jihatdan to'ydirilgan bo'yoqdor manzaradir"²⁶. Mazkur matnda muallif birinchi ibora bilanoq o'quvchisini obrazlar olamiga olib kirish uchun tayyorgarlikni vujudga keltiradi, vaqt va tabiat tasviriga o'tadi hamda asar qahramoni Nazar Yaxshiboyev bilan tanishtiradi. Shundan so'ng zamon va makon to'g'risida qisqacha ma'lumot beriladi. O'quvchi tasvirning qolgan qismini ham shu zaylda qabul qilishi va tahlil etishi mumkin bo'ladi. Bunda u, avvalo, tabiatning jonli harakatdagi holatini, bosh qahramonning kayfiyatini, atrofida gilarining unga va uning boshqalarga bo'lgan munosabati qandayligini bilib oladi. Eng muhimi, muallif o'z asarga qahramon nutqiga xos jummalarni mo'l-ko'l kiritadi, uning ovozini o'z ovozigacha qo'shib yuboradi, u bilan birgalikda yashaydi, kuladi, o'ynaydi.

Demak, o'rganilayotgan o'zbek adabiyotining bosh fazilatlaridan eng muhimi bevosita muallif bayonining vazifa doirasi kengayganligi, munosabat shaklining kishanlaridan ozod bo'lib, umumbashariy tamoyillarga moslashganligida, yozuvchi uslubining turli qoliplardan xalos bo'lib rang-baranglashganida ko'rindi.

²⁶ Solijonov Y. Nutq va uslub. – T., 2002.

“Bilvosita bayon qilish jarayonida muallifning emotsional izhori ham munosib o’rin oladi. Bunday holatlar ko’proq janr xususiyatlaridan kelib chiqib, liroepik dostonlarda, romantik nasriy asarlarda uchraydi”²⁷ - deb ta’kidlaydi Yo’ldosh Solijonov. Darhaqiqat asarlarda ro’y berayotgan voqea-hodisalar qahramonlar harakati orqali ko’zga tashlanadi. Muallif esa unda faol qatnashuvchi shaxs sifatida emas, balki qahramon qalbiga singib kirib, o’z nuqtai - nazarini qahramon nigohi bilan ko’rish va ifodalashga intiladi. Tilimizdagi ayrim so’z va iboralar mavjud qahramon nutqiga oid holat sifatida tan olinadi. Chunki ular muallif tomonidan qalamga olinishi mumkin emas. Adabiyotshunos Yo’ldosh Solijonov bilvosita muallif nutqini sub’ektiv mansubligiga ko’ra qo’l yozmadagi ikki imkoniyatni alohida qayd etadi:

“1. Muallif nutqidagi so’z o’z mazmuni, mohiyati bilan bevosita muallif nuqtai nazarini aks ettiradi va predmet haqida axborot berishga yo’naltirilgan bo’ladi.

2. Muallif nutqidagi so’z xabar berayotgan predmetni (uni qahramon qanday atagan bo’lsa shunday) atab, o’sha qahramonning nuqtai- nazarini aks ettiradi. Ya’ni predmet haqidagi axborot bilvosita o’zganing nuqtai nazari va o’zganing atamasi bilan beriladi.”²⁸

Bilvosita muallif nutqida so’z va iboralar asar bayonining rang-barangligiga, qarashlarning aniqligiga, ishonarli chiqishiga, fikrlarning qiziqarli bo’lishiga, qahramonning faolligini isbotlashga yordam beradi. Nutqiy jarayonning asosiy stilistik kategoriyalari:

1. Badiiy asardagi muallif nutqi;
2. Qahramon nutqi;
3. Bilvosita muallif nutqi hisoblanadi.

Nomlari sanab o’tilgan nutqiy jarayonning asosiy stilistik kategoriyalari bayonning asardagi badiiy matnning o’ziga xos xususiyatlarini mujassamlashtirib,

²⁷ Solijonov Y. Nutq va uslub. – T., 2002.

²⁸ Solijonov Y. XX asrning 80-90-yillari ўzbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т., 2002.

uning kompozitsiyasi yaxlitligiga asos soladi. Boshqacha aytganda, bu usullar matnni umumiy bir nuqtaga birlashtiradi.

Muallif nutqi mazmuniga ko'ra ikki turga bolinadi. Ular:

1. Bevosita bayon;
2. Bilvosita bayon.

“Bilvosita nutq esa muallif va haqra monning sub'ektiv rejasini birlashtiradi”²⁹. Shunday qilib, bu nutq shakli muallif va qahramon nutqlari qatorida mustaqil kategoriya hisoblanadi. Mustaqil yo'nalishga ega bo'lgan muallifning bilvosita nutqini adabiyotshunos Yo'ldosh Solijonov muallif va qahramon nutqlarining o'zaro chatishuvi darajasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'ladi:

Birinchi tur: bunda muallif go'yo qahramoniga ma'lum muddat o'rnini bo'shatib, o'zini chetga oladi, lekin ular o'rtasidagi chegara aniq ko'zga tashlanib turadi. Muallif nutqi tarkibiga kirgan qahramon nutqi hajmiga ko'ra cho'ziq yoki qisqa bo'lishi mumkin. Masalan: Murod Muhammad Do'stning "Lolazor" romanida shu holatni kuzatish mumkin bo'ladi.

Ikkinchi tur: muallif bilan qahramonning nutqdagi o'zaro mustahkam hamkorligi bilan ajralib turadi. Ular biron bir voqeani misol qilishda teng huquqqa ega bo'ladilar, tez - tez o'rin almashib turadilar. Hajmi ham kattaroq bo'ladi.

Uchinchi tur: asarda olib borilayotgan asosiy bayon kalavasining uchini muallif ushlab turi shi, lekin vaqti - vaqti bilan o'zi egallagan uyning eshigini ochib, u yerdan qahramonining mo'ralashiga va o'ziga tegishli so'zlarini aytishiga imkoniyat yaratishi bilan ajralib turadi. Bu yerdagi ishtirokchi nutqi alohida so'z, so'z birikmasi va ibora shaklida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham uni muallif nutqidan alohida ajratib olish qiyin. Mabodo ajratib olinadigan bo'lsa, nutq aloqadorligi hamda gap qurilishiga putur yetadi. Bu so'z, so'z birikmasi yoki ibora alohida olinganda esa nutqni tashkil etmaydi, balki gapning alohida qismi bo'lib qolaveradi. Masalan: Omon Muxtorning "Ffu", "Ayollar mamlakati va saltanati",

²⁹ Solijonov Y. Nutq va uslub. – T., 2002.

"Tepalikdagi xaroba"¹.

Muallif nutqi bilan qahramon nutqlarining o'zaro chatishuvi nasriy asar poetikasining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bu asarlardagi muallif nutqi ning leksik boyligi, sintaktik qurilishi jihatidan rang - barangligi, ohanglarning serjilo ko'lamini bu romanlar fazilatining doimiy yo'ldoshi bo'lib, ular umrbog'iyligini ta'minlovchi bosh xususiyatlardir. Bu asarlarda sof muallif nutqi bilan qahramonlar nutqining xilma - xil shakllari orasida doimiy harakatchanlik mavjud. Muallif qahramonning o'y fikrlariga turtki berib, o'zini chetga oladi. Natijada nutqning sintaktik, leksik va uslubiy tuzilishi hamda ohangi o'zgaradi, bu o'zgarish qahramonga tegishli nutq vositalari orqali vujudga keladi.

80 – 90- yillarga kelib o'zbek adabiyotida bayon markaziga qahramon nuqtai nazari ilgari surilgan asarlar ancha ko'paydi. Bunda o'z - o'zidan muallif munosabatini ifodalash shakllari butunlay o'zgara boshladi. Muallif nutqi yo'nalishiga qahramon nuqtai nazarining qo'shilishi XX asr o'zbek adabiyotining boshlovchilari A. Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, A.Qahhorlar ijodida kurtak yoza boshlagan edi. Tadqiqotchi Yo'ldosh Solijonov nuqtai nazar iborasining ma'nosini uch xil tushuntirib beradi:

1. Voqealarni hikoya qilishda, munosabat bildirishda asar qahramonlaridan birining fikrlaridan foydalanish, shartli ravishda hikoya qilishni unga topshirib, uni yo'naltirib, nazorat qilib turish;
2. Asar qahramonlarini o'zganing yoki bir birining nigohi bilan ko'rish va tasvirlash;
3. Muallif nutqi tarkibiga qahramon nutqiga xos so'z va iboralarning kirib kelishi va muallif fikri, qarashlari, munosabati bilan uyqunlik qosil qilib, g'oyaviy estetik vazifani ado etishi.

Adabiy asarlarning eng yaxshi namunalari hisoblangan O' Hoshimovning "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar", M.M.Do'stning "Lolazor", M.Mansurovning "Mangu jang", O.Muxtorning "Ming bir qiyofa", "Ko'zgu

¹ Solijonov Y. XX asrning 80-90-yillari ўzbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т., 2002.

oldidagi odam", X.Do'stmuhammadning "Bozor" romanlarida bosh qahramonning voqea - hodisalarga, atrof - muhitga, buyum va narsalarga, odamlarga qaratilgan nuqtai nazari asar oxirigacha uzluksiz saqlanadi. Ba'zilarida esa voqealarni hikoya qilish asar qahramonlaridan biriga topshiriladi. Yana bir muhim xususiyat, qahramon nuqtai nazari asarning barcha tarkibiy qismlarini qamrab oladi va uni birlashtirib turadi. Bu xususiyat esa hozirgi kunda o'zbek adabiyotida dunyoga kelgan yirik epik janrning asosiy fazilatiga aylanib bormoqda. Zero, bu shakl kichik janrlardan ko'ra yirik janrlarda ko'proq samara bermoqda. Omon Muxtor romanlarida muallif aralashuvining o'ziga xos shakllaridan unumli foydalaniladi. Bunday o'ziga xos shakllardan biri bayonchining shartli ravishda ikki qiyofaga bo'linishidir. Asar voqealari muallif tomonidan hikoya qilinadimi yoki qahramon bayoni asosiga quriladimi, bundan qat'i nazar yozuvchi o'z "meni"ni yashirmaydi. Yo qahramonning eng yaqin kishisi yoki tassavvuridagi o'quvchisining suhbatdoshi sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, muallif asarda tasvirlanayotgan voqea – hodisalarning bevosita ishtirokchisi bo'lib ko'rinishi ham mumkin. Masalan : "Ko'zgu oldidagi odam" romanidagi voqelik bir yigitning o'z tilidan hikoya qilindi. Shunga qaramay asardagi "Kirish" va "Birinchi sahifa"ning ikki qismida muallif o'zini bevosita namoyon qiladi. U to'g'ridan-to'g'ri o'quvchiga murojaat qilib "Eshitganmisiz, yo'qmi.Shirinko'l degan joy bor"¹ deb boshlaydida, mana shu Shirinko'lda juda antiqa voqea ro'y berganligini hikoya qilmoqchi bo'ladi. Hikoyachi Valijon "men"i esa "Birinchi sahifa"ning 3 qismida kirib keladi."Ffu" romanida ham muallif tassavvuridagi o'quvchisi bilan muloqotga kirishadi: "Bu yozganim barchasi eski gap. Bironta yangi gap yo'q! Topolmaysiz. Lekin sizni eski gaplar... qiziqtirmaydimi!" So'ngra uni hikoyasini tinglashga taklif qiladi: "Ostonada ovora qilmay, ichkariga boshlayver Gapingni gapiraver cho'zmasdan, deysizmi! Ha, albatta. Demak... Marhamat!"³⁰

¹ Muxtor Omon. " Ffu ". T., 6-b.

Shubhasiz, muallifning o'zini bunday aniq shaxs sifatida namoyon qilishi voqealarni tasvirlash imkoniyatlari bir qadar cheklanishiga ham olib kelgan. Faqat o'zi ko'rgan, guvohi bo'lgan yoki bevosita qatnashgan va eshitgan voqea - hodisalarnigina hikoya qilib berishga majbur bo'lardi. Vaholanki, badiiy asarda adib tasavvuri muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan O.Muxtor kirishda muallif o'zligini aniq taqdim etsada, asosiy voqealarni hikoya qilishda o'zini bir muncha chetga oladi, uchinchi shaxs rolini bajara boshlaydi, bayonni qahramonlardan biriga topshiradi. Shunga qaramay yozuvchi muallif sifatidagi vazifasini aniq bajaradi, hikoya yo'nalishini boshqarib boradi"².

Yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki, XX asr adabiyoti qator o'zbek yozuvchilari ijodida bilvosita nutq shaklining har tomonlama rivojlanish yo'liga kirganligi bilan e'tiborni tortadi. Bilvosita nutq shaklining o'ziga xosligi shundaki, voqelikni hikoya qilayotgan muallif nutqi tarkibiga asarda qatnashuvchi boshqa qahramonlarning iboralari, so'zlari, o'y va kechinmalari kirib keladi va muallif nutqi bilan bir qatorda voqelikni tahlil etadi. Natijada muallif nutqi bilan qahramon nutqi o'zaro birlashib, hayot hodisalariga nisbatan ularning qarashlari yaqinlashadi, qo'shiladi. Bunda tasvir o'ziga xos ravishda yangi rang va bo'yoq kasb etadi hamda alohida ifoda quvvatiga ega bo'ladi. Bunga misol qilib Murod Muhammad Do'stning "Lolazor" romanini ko'rsatish mumkin. Asarda muallif nuqtai nazari qahramonga butkul singdirib yuborilganini sezish mumkin. Asarda qaysi o'rinda muallif nutqi tugab, qaysi o'rinda qahramon nutqi boshlanganini anglash ancha qiyin kechadi. Romanda muallif nutqiga xos xolislik, iboralarda qisqalilik, sodda yig'iq gaplardan foydalanishda ustalik, atigi ikki yoki uch - to'rtta so'z orqali o'z fikrini to'la namoyon qila olish san'ati diqqatga sazovordir. Muallifning bu iste'dodi o'z asarlarida to'la namoyon bo'ladi. Dono kitobxon esa buni bir o'qishdayoq tushunadi, anglaydi va muallifning iqtidoriga tasannolar aytadi, o'qib rohatlanadi. Yana bir tomoni borki, muallif so'zi asarda qatna shuvchi boshqa shaxslar so'zlari bilan o'ta singib, birlashib ketmaydi. Ular o'ziga xos ohangi, tuzilishi va ma'nosi

² Solijonov Y. Nutq va uslub. – T., 2002. 38 – b.

bilan ajralib turadi. Ayrim o'rinlarda ular bir-biri bilan uyg'unlashadi, yana darhol ajralib, mustaqil yo'nalishda davom etadi. Muallif qahramonning barcha fazilatlarini berishga intilmaydi, ularni o'z holicha, qahramon qanday o'ylagan bo'lsa, shunday shaklda aks ettiradi. Keyin esa muallifning o'zi bu nutq tuzilishiga, ma'nosiga tuzatishlar kiritiladi. Bu tuzatish uning nutqigagina oid bo'lib qolmaydi, balki qahramon xarakteridagi biron - bir qirrani ochishga yordam beradi.

Bugungi nasrda muallifga daxldor bilvosita nutqning rang - barang shakllari ko'zga tashlanmoqda. Shulardan eng muhimlari sifatida Yo'ldosh Solijonov quyidagilarni misol qilib keltiradi:

1. Hikoya xarakteridagi bilvosita nutq. Bu shakl O' Hoshimovning "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar", M.M.Do'stning "Lolazor" romanlarida muvaffaqiyatli qo'llangan. Chunonchi "Ikki eshik orasi"da muallif voqealarni hikoya qilishni to'laligicha qahramonlarga topshiradi. Bu vazifadan faqat Orif oqsoqol, Husan duma, Bashorat xola bilan Parcha opalar ozod qilingan xolos. Eng ko'p hikoya qilish vazifasi Muzaffar bilan Robiya zimmasiga yuklatilgan. Hikoyachi ishtirok etuvchilar xilma - xil mavqe'ga, dunyoqarashga, tur- licha yoshga ega bo'lganligidan ularning hikoyasini muallif boshqarib, bir - biri bilan birlashtirib, badiiy jihatdan bezab turadi. Peyzaj tasvirlari, qahramonlar holati va bir -biriga munosabatini ifodalashda ularning orqasida so'zsiz muallif paydo bo'ladi. Demak, romandagi hikoyalash usulini shartli deb qabul qilish o'rinlidir.
2. Muallifning bilvosita nutqi dialog replika (luqma) siga yashirin javob tarzida paydo bo'ladi. Bu xususiyat ko'proq yozuvchi O.Muxtor romanlarida ko'zga tashlanmoqda. Masalan: "Gap yo'q. Jonim bilan! dedi Olim Hamidani kuzatayotib . . . bir jihatdan yaxshi bo'ldi"¹. Bunday misollarni yozuvchining boshqa asar laridan ham ko'plab keltirish mumkin.
3. Bilvosita muallif nutqida suhbatdoshiga xayolan murojaat qilish shakli ko'proq "Lolazor" romanida uchraydi².

¹ Muxtor Omon. "Ayollar mamlakati va saltanati", 102 bet .

² Solijonov Y. XX asrning 80-90-yillari ўzbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т., 2002.

Qahramonning o'z-o'ziga murojaati ham mu allifning bilvosita o'z qahramoniga bergan bahosi, munosabati tarzida namoyon bo'ladi. Garchi qahramon o'z-o'zini baholayotgan, muhokama qilayotgan bo'lsada, uning ohangida muallifning ovozi baralla eshitilib turadi. Romanlardagi umumlashtiruvchi xarakterga ega bo'lgan mulohazalar ham o'z kitobiy qurilishini saqlagan holda qahramonlarning bilvosita nutqi orqali bayon qilinadi. Muallif yoki qahramon nutqi tarkibida uchraydigan o'zganing nutqi elementlarini adabiyotshunos Yo'ldosh Solijonov o'z shakli va mazmuniga, qo'llanish tartibiga, hamda ohangiga ko'ra quyidagi vazifalarni ado etishini aytib o'tadilar:

- a) So'zlovchining o'zgaga munosabatini bildiradi;
- b) O'zganing so'zlovchiga munosabatini anglatadi;
- v) O'zganing xarakter xususiyatlarini ochadi;
- g) O'zganing nutq individualligini ko'rsatadi.

Mazkur bo'linish ko'p adabiyotshunoslar tomonidan tasdiqlandi, ma'qullandi. Asarlarda muallif bayoni orqali qahramon nuqtai nazari markaziy o'rinni egallaydi. Bu esa O' Hoshimov, M.Mansurov, M.M.Do'st, O.Muxtor romanlari o'z aksini to'la namoyon qiladi. Hozirgi adabiy jarayonda qahramon nuqtai nazarini ifodalovchi vositalar mujmui tobora ko'payib, kengayib bormoqda. O'z navbatida o'zbek nasrida xarakter bayonining rivojlanishi ko'zga tashlanib bormoqda. Buning sababini xalqimizning o'z maishiy turmushiga tahliliy va tanqidiy qarashi, madaniy - ma'naviy merosi hamda tarixi bilan bog'liq ravishda o'zligini anglash istagi uyg'onganligidan izlash lozim bo'ladi. Ijtimoiy - iqtisodiy o'zligini anglashda ro'y berayotgan ko'plab yangiliklar va jiddiy o'zgarishlar uning tilida ham o'z aksini topadi.

XX asr oxiridagi o'zbek nasri munalarida bilvosita muallif nutqining bu xil rang - barang shakllarini ko'p uchratish mumkin. Bunga misol qilib, M.M.Do'st, O.Muxtor kabi izlanuvchan yozuvchilarimiz asarlarini keltirish mumkin. Chunki ular birinchilardan bo'lib, voqelikni tasvirlashda kinematografik bayon usulini o'zbek nasriga olib kirdilar. Hozirgi o'zbek nasriga qahramon nuqtai nazari ifodalanishining uslubiy ko'lami bo'yicha yondoshadigan bo'lsak, bunday asarlarni

shartli ravishda quyidagi tiplarga bo'lib o'rganishni tadqiqotchi Yo'ldosh Solijonov taklif qiladi:

A) Qahramon nuqtai nazariga asoslangan bayonda adabiy til normalariga yaqinlashishga intilish sezilayotgan asarlar. Bu tipga O. Yoqubovning "Oq qushlar, oppoq qushlar. . .", O. Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar", O. Muxtorning "Ko'zgu oldidagi odam" kabi romanlarini kiritish mumkin.

B) Xarakterologik rivoyaga tayangan asarlar. Bunday tipda yaratilgan namunalarda hikoyachi qahramon o'zini faqat bayonning kompozitsion markazi sifatidagina emas, balki stilistik markaz tarzida ham namoyon qila oladi. O' Hoshimovning "Ikki eshik orasi", O. Muxtorning "Ko'zgu oldidagi odam", T. Murodning "Otamdan qolgan dalalar", M. M. Do'stning "Lolazor" romanlari shu tipga mansubligi bilan ajralib turadi.

V) Har ikkala stilistik qurilmalarni o'zi da mujassam qilgan asarlar sirasiga O. Muxtorning "Ayollar mamlakati va saltanati", "Tepalikdagi xaroba", X. Do'stmuhammadning "Bozor" kabi romanlarini kiritish mumkin. Shuningdek, O. Muxtorning "Ko'zgu oldidagi odam", T. Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanlarida adabiy til normalariga intilish bilan birga xronologik bayon bitta hikoyachi qahramon chizig'i yo'nalishida birlashib ketadi¹.

Hozirgi kun nasri uchun muhim bo'lgan yangiliklardan biri mualliflarning dialoglardan keng foydalanishlaridir. Bunday o'ziga xoslik dialoglarda faqat og'zaki

nutqqa xos ko'rinishlarning aks etayotganligidagina emas, balki ularning adabiy – badiiy va kitobiy nutq qurilmalari bilan birikuvi, hamkorligi yo'llarining mustahkam lanishida ham namoyon bo'layotganligini ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kun da nasrimizda muallif izohi va fikrining ko'lami kengayib, qahramonni o'quvchiga har tomonlama tanishtirishdagi roli ortib bormoqda.

Remarka va replikalar, so'zlovchining bayon qilingan fikri o'rtasida mutanosiblik, o'zaro yaqinlik, aloqa-dorlik kuchayib bormoqda.

¹ Solijonov Y. XX asrning 80-90-yillari ўzbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т., 2002.

“60 – 70-yillar nasrida dialoglarda voqeabandlik ustun bo’lib, ularda qahramonlarning nutqiy fikr va tuyg’ularini ochish emas, biror yangi ma’lumotni yetkazish yoki qahramon hayotida sodir bo’lgan biror yangi hodisa to’g’risida axborot berishga oshiqish, qahramon hayotida yuz bergan o’zgarishni asos lashga urinayotgan muallifning ro’li ko’zga tashlanib turgan bo’lsa, hozirgi davr o’zbek adabiyotida bunday kitobiy- adabiy nutqdan qahramonlarning xarakteridan ko’ra ko’proq hikoyachi muallifning obrazini anglaymiz”² – deb ta’kidlaydi, adabiyotshunos Azim Rahimov. Haqiqatdan ham hozirgi adabiy jarayon tez suratlar bilan o’zgarib, rivojlanib bormoqda. Buni yuqoridagi misollar orqali ham anglash va sezish mumkin bo’ladi.

Ustozimiz Yo’ldosh Solijonov bevosita va bilvosita muallif nutqining o’zaro farqlarini misollar yordamida aniq oydinlashtirib beradilar. Bevosita muallif nutqida so’z o’z mazmuni, mohiyati bilan nuqtai nazarini aks ettiradi va predmet haqida aniq ma’lumot berishga yo’naltirilgan bo’ladi. Bilvosita muallif nutqida esa mazmun – mohiyat, aytilmoqchi bo’lgan fikr qahramonning nuqtai- nazari orqali yoritiladi. Birgina XX asr adabiyoti bilan XXI asr adabiyotining farqlari bir qancha. Bu davr ichida o’zbek adabiyotida juda ko’p yangiliklar amalgam oshirildi, izlanishlar qilindi. Tanqidchi va tadqiqotchi adabiyotshunos Yo’ldosh Solijonov o’z izlanishlari davomida juda ko’p yangiliklar yaratdi va yuksak cho’qqilarga erishdi. Uning izlanishlari besamar ketmadi. Asosli dalillar yordamida o’z fikrini ommaga namoyon etgan olim adabiyotchi, tanqidchilar orasidan munosib o’rin egalladi. Buni olimning fikrlaridagi aniqlik, teranlik, soddalik hamda tushunarlilik tasdiqlab turadi. Bir so’z bilan aytganda, adabiyotshunos hamda tanqidchi olim Yo’ldoshxo’ja Solijonov badiiy asarda muallif nutqi va yozuvchi uslubi o’ziga xos ekanligini asoslab beradilar.

² Rahimov A. Muallif hikoyachi kitobxon. O’zbek tili va adabiyoti, 1990. N 81. 37 - b.

II BOB.

YO'LDOSH SOLIJONOV -- BADIY NUTQ POETIKASI TADQIQOTCHISI.

Adabiyotshunos olim Yo'ldosh Solijonov o'z izlanishlari va tadqiqotlari davomida badiiy nutq va uning poetikasiga alohida e'tibor qaratdi. Zero, til birgina lingvistika fanining predmeti bo'lib qolmasdan badiiy adabiyotning ham birinchi elementi ekanligi barchaga azaldan ma'lum. Har bir badiiy asarda so'z alohida, muhim ahamiyatga ega. Badiiy asarda so'z o'zining aniq va jonli bir butunligi, turli ma'no jilolari bilan namoyon bo'ladi. So'z badiiy asarda fikrni teran, aniq, mazmundor va tushunarli ifodalashga xizmat qiluvchi vosita hisoblanadi. Badiiy asarda so'z ifodalanayotgan hayotning aniq tomonlarini tasvirlashga xizmat qiladi.

Bu bobda biz adabiyotshunos Yo'ldosh Solijonovni badiiy nutq poetikasi tadqiqotchisi sifatida o'rganamiz. Bunda Yo'ldosh Solijonovning badiiy nutq tiplari, tasnifi, qo'llanilishi hamda o'zbek adabiyotshunosligining hozirgi dolzarb muammolari haqida fikr yuritamiz.

II – BOB. 1-FASL

BADIIY NUTQ TIPLARI, TASNIFI VA QO'LLANILISHI.

Har bir badiiy asarda nutq hodisasi to'la ma'noda kuzatiladi. Shuning uchun ham asar tili yozuvchi mahoratini belgilovchi bosh mezon hisoblanadi. “Adabiyot tildan boshlanadi. Rangsiz tasviriy san'at, ohangsiz muzika bo'lmaganidek, tilsiz adabiyot ham bo'lmaydi”³¹. Yozuvchining o'z oldiga qo'ygan maqsadi til orqali ilgari suriladi. Barchaga yaxshi ayonki, o'zbek adabiyoti uzoq va murakkab nutqiy jarayonni boshdan kechirdi. Vaqtlar o'tib, asardagi til masalasi poetika muammosining tarkibiy qismi sifatida o'rganila boshladi.

Badiiy nutq tiplari va shakllarining yangiliklari rang - barangligida namoyon bo'ladi. Tadqiqotchi Yo'ldosh Solijonov badiiy nutq poetikasini tadqiq etishda, avvalo, prozaik nutq tiplari, tur hamda shakllariga to'xtalib o'tadi. M.M. Baxtin badiiy nutqning uchta yirik tipi va ularning 14 xil turini tasnif qilib beradi. Uning tasnifiga ko'ra, muallif hamda qahramonlar nutqidan iborat birinchi va ikkinchi tiplar bir ovozli bo'lib, ularga o'zganing ovozi qo'shilmaydi. Nutqning uchinchi tipini “ikki ovozli so'z” deb ataydi.

Badiiy nutq tiplarini A. Feodorov quyidagicha tasnif qiladi:

1. Voqealar, odamlar xatti – harakati haqidagi hikoya va muallifning tabiat, shart – sharoit, ishtirok etuvchi shaxslarning tashqi qiyofasi, ust – boshining tasviri, ularning ruhiy holati va kechinmalarining xarakteristikasi va h. k. haqidagi mulohazalarini o'z ichiga olgan bayon;
2. Ishtirok qiluvchilarning bevosita nutqi – ularning bir – biri bilan so'zlashuvi;
3. Ichki nutq – personajlarning aytilmagan, ammo replica kabi boshqa odamga qaratilgan fikrlari;
4. O'zganing nutqini uchinchi shaxs tipi orqali hikoya qilib berilishida ko'rinuvchi noxususiy bevosita nutq.

Yuqoridagilardan bilib olish mumkinki, badiiy nutq tiplari, tur va shakllarini M.M. Baxtin uch turga, A. Feodorov to'rt turga bo'lib o'rganadi. O'zbek

³¹ Sharofiddinov O. Haqiqatga sadoqat. Adabiy – tanqidiy maqolalar. T., 1989. 64-b.

adabiyotshunosligida badiiy nutq tiplari, tur va shakllarini birinchilardan bo'lib tadqiqotchi Yo'ldosh Solijonov quyidagicha tasnif qiladi:

1. Monologik - qissaxonlik nutq uslubi;
2. Ikki ovozli hikoyanavislik uslubi;
3. Ko'p ovozli bayon uslubi;
4. Ohangning har xilligi – patetik, oratorlik, qo'shiq, deklomatsiya uslubi;
5. Iboralarning qurilishi jihatidan – kesik, zarbli, yoyiq va ritmik siqqlik uslubi;
6. Leksik jihatdan arxaizm va neologizm bilan to'yingan avtor nutqi, uslubi va hokazo³².

O'zbek adabiyotida badiiy asar tili va nutq shakllari bo'yicha P. Qodirov, S. Mamajonov, O'. Nosirov, H. Umurov, G. Imomova, A. Nurmatov maxsus tadqiqotlar olib bordilar. Badiiy nutq tiplari, tur va shakllari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni rus adabiyotshunosligida V.V. Vinogradov, G.O. Vinokur, N.K. Gey, M.B. Xrapchenko, M.M. Baxtin, A. Feodrov, V. Kojinov, V. V.Odinov olib borganlar.

Nutq o'z navbatida ikkiga bo'lib o'rganiladi:

- 1.Monologik nutq ;
- 2.Diologik nutq.

Til diologik muloqotda jonlanadi. Aynan diologik muloqot jonli til doirasini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Til qaysi sohada qo'llanilmasin, unga ma'lum ma'noda diologik munosabat singdiriladi. Bu munosabat esa so'zda namoyon bo'ladi. Dialoglarning tuzilishi ko'p jihatdan muallif bayonining uslubiy qurilishini belgilab beradi. Dialog orqali qahramonning xarakteri, dunyoqarashi, fikrlash doirasi tabiati to'laroq ochib beriladi. Badiiy asarda muhim o'rin tutgan dialog muammosini turli yo'llar va usullar yordamida bir qancha olimlar tadqiq qilganlar. Ana shunday olimlar qatorida adabiyotshunos Yo'ldosh

³² Solijonov Y. XX asrning 80-90- yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T., 2002.

Solijonov qarashlari o'z o'ringa ega. dialogni tuzilish sistemasi nuqtai nazari dan tekshirish ko'p jihatdan ma'qul va foyda liroqdir. Bunda tadqiqotchi dialogning ham ichki, ham tashqi organizmi a'zolarini chuqurroq va batafsilroq o'rganish imkoniga ega bo'ladi. Aslida dialog strukturasi degan tushunchaning o'zi turlicha yondashishni talab qiladi. Agar tilshunoslar dialogda ishtirok etayotgan qahramonning xalq jonli so'zlashuv tilidan foydalanish darajasi, ularning grammatik, sintaktik, fonetik talablarga javob bera olishi, sheva hamda lahja elementlarining ishlatilish me'yori, dialogning stilistik qurilishi masalalari bilan ko'proq shug'ullansalar, adabiyotshunoslar yuqoridagilar bilan birgalikda yozuvchining shaxsiy uslubini, uning asar kom pozisiyasini tashkil etish, syujetini rivojlantirish va obraz yaratish, qahramonlar nutqini individuallashtirish mahoratini, dialoglarning struktural elementlarini aniqlash va tadqiq qilish yo'lidan boradilar.

Hozirgi adabiy jarayonda mavjud dialoglar tizimini tadqiq etishga kirishar ekanmiz, avvalo, uning asosiy tiplari, turlari va shakllari rini aniqlab olishimiz zarur. Chunki hozirgi paytda bu masalani o'zimizga avvaldan tanish bo'lgan yo'nalishlar tilshunoslik nuqtai nazaridan dialogni adabiy tilning elementi sifatida gap qurilishi va grammatik - stilistik yechimlari asosida va adabiyotshunoslik fanining ob'ekti sifatida birgina funksional mundari javiy vazifalari nuqtai nazaridan yondashib tahlil etish kamlik qiladi. Zero, bu yo'nalishlar vaqt o'tishi bilan biroz eskirdi ham, buning ustiga dialoglarning so'nggi yillar da paydo bo'lgan yangi xususiyatlarini o'z doirasiga qamrab ololmaydi ham.

Adabiyotshunos Yo'ldosh Solijonov hozirgi o'zbek nasridagi dialoglarning eng ko'p tarqalgan ikki xil tipini ajratib ko'rsatadi. Bular:

1. Tavsifiy dialoglar;
2. Dramatik dialoglar;

“Birinchi tip tavsifiy dialoglar o'zining strukturasi jihatidan ma'lum darajada qonun - qoidalarga bo'ysundirilgan va aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Muallif izohi va luqmalar nisbatan kengroq, davomiylikka ega, bir yo'la so'zlayotgan yoki tinglayotgan suhbatdoshlardan birining ta'rif - tavsifini, xarakter xususiyatlari va xatti - harakatlarini ifodalaydi. Xatto bironta bo'lib o'tgan hodisa hikoya qilinishi

ham mumkin. Muallif bayonida asosan faktlarning batafsilroq izohlanishiga e'tibor beradi. Bunday dialog tizimida qisqa luqma (replika)larning tez - tez o'rin almashinuvi yoki qarama - qarshi holatlar va harakatlar ko'p ro'y beravermaydi. Fikr rivoji dialogda bir yo'nalish va yagona izchillikda davom etadi"³³. Bunga misol tariqasida yozuvchi Said Ahmadning "Jimjitlik" romanidagi Nurmat tog'a taqdiri bilan bog'liq bo'lgan bir epizodni keltirish mumkin.

"Kunlarning birida rais uni kabinetiga chaqirib, o'ttiz ming so'm tayyorlab qo'yishni tayinladi.

-“Shuncha pulni nima qilasiz?” deydi ajablanib Nurmat tog'a.

-Kuyovga bitta hovli olib bermoqchi bo'lib yurgandim. Hozir telefon qilishdi. O'ttiz mingga yaxshi hovli savdosini pishitib qo'yishibdi. Uydagi pul xotinda edi. Turkistonga Sultonimni ziyorat qilgani ketgan. Kelishi bilan joyiga qo'yib qo'yamiz.

-Bankka borib yirigiga almashtirib kelsangiz yaxshi bo'lardi. Shuncha pulni do'ppaytirib olib yurmay.

Nurmat tog'a yo'q deyishni ham, qovli deyishni ham bilmay chaynalib turib qoldi.

- Ishonmayapsiz chog'i, deydi rais achchiqlanib, yo tilxat yozib beraymi? Nurmat tog'a raisga necha martalab ming, o'n ming pul bergan, biron marta tilxat so'ramagandi. Rais ham aytgan kuni yo pulni qaytarib berar, yo bo'lmasa buxgalteriya orqali rasmiylashtirib orani ochiq qilib qo'yardi. Shundoq odamga ishonchsizlik qilishga Nurmat tog'aning ko'ngli bo'lmaydi. Aytgan vaqtida o'ttiz ming so'mni idoraga olib kelib beradi"³⁴.

Berilgan misoldan ko'rinib turibdiki, dialog izchilligi muallifning uzundan- uzoq izohlari, qahramon holatini izohlovchi cho'ziq luqmalar orqali ta'minlanadi.

Keltirilgan bu dialog mustaqil hikoya shaklini olgan hisoblanadi.

“Dramatik dialog tipidan esa yozuvchi voqelikka keskinlik, shiddat berish, konfliktni kuchaytirish, qahramonlar xarakteri va holatini chuqurlashtirish uchun foydalanadi. Unda muallif remarkasi ko'p ham ishlatilavermaydi, hatto remarkalar

³³ Solijonov Y. Nutq va uslub. T., 2002.

³⁴ Said Ahmad. Jimjitlik. T., 35 – b.

ham undagi keskinlikni susaytirishi mumkin”³⁵ – deb ta’riflaydi Yo’ldosh Solijonov. Bu tipga misol qilib Odil Yoqubovning "Diyonat", M.Mansurovning "Mangu jang" romanlarini keltirish mumkin.

Adabiyotshunos Yo’ldosh Solijonov dialog tiplarining faol tarmoqlari sifatida quyidagi uch turni ajratib ko’rsatadi:

1. Jonli (real) dialoglar;
2. Xayoliy (tasavvurdagi) dialoglar;
3. Ichki dialoglar.

“Jonli (real) dialog turi asar qahramonlarining bir - biri bilan yuzma - yuz turib muloqot olib borish jarayonidir. Bunday dialogda ikki yoki undan ortiq qahramon bevosita ishtirok etadi va ularning suhbatlari asar voqeligini rivojlantirishga, yaxlitligini ta'minlashga faol yordam beradi”³⁶. Tabiiyki, dialogda ikki yoki undan ortiq kishining o’zaro suhbatlari aks etgan bo’ladi. Dialogning bu turida qahramonlarning o’zaro yonma – yon holda turib olib brogan muloqoti yoritiladi. Bunday dialog tipiga misol qilib, Odil Yoqubovning "Diyonat", "Oq qushlar, oppoq qushlar...", S.Ahmadning "Jimjitlik", M.Mansurovning "Mangu jang" romanlarini keltirish mumkin. Jonli dialog turi haqida tadqiqotchi T. Jo’raev "Ong oqimi va tasviriylilik" monografiyasida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Ichki monolog doirasi-da qahramonning o’zi bilan o’zi suhbatlari tarzida ifodalanadi”³⁷.

Xayoliy dialog bilan ichki dialog turlari o’zaro bir xildek tuyuladi. Shuning uchun ham ularni ko’p hollarda chalkashtirib yuboradilar. Lekin ularning har biri o’zining yaratilish jarayoni va tuzilishiga ko’ra bir-biridan tubdan farq qiladi.

Adabiyotshunos Yo’ldosh Solijonov xayoliy dialoglarga : “Qahramonlar o’rtasida qachondir bo’lib o’tgan jonli dialogning keyinroq aynan unda qatnashganlardan yoki eshitganlardan birining tasavvurida qaytadan tiklanishidir” , ichki dialog esa asar qahramonining o’z-o’zi yoki biror hamsuhbati (eqtimol, sevgi lisi yoki raqibi) bilan g’oyibona fikrlashuvi, tortishuvi asosiga quriladi” – deya ta’rif beradi.

³⁵ Solijonov Y. XX asrning 80-90- yillari o’zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T., 2002.

³⁶ Solijonov Y. Nutq va uslub. T., 2002.

³⁷ Jo’raev T. "Ong oqimi va tasviriylilik". T. Fan, 1994. B.: 67.

Tadqiqotchi Yo'ldosh Solijonov keyingi davr o'zbek nasrida ommalashib borayotgan dialogning quyidagi turlarini ko'rsatib o'tadi:

1. Bahs dialog;
2. Xarakteristik (tavsifiy) dialog;
3. Dramatik dialog;
4. Muhokama dialog”³⁸

Dialogning bunday shakllari hozirgi paytda tub fazilatlarini o'zida yorqin namoyish etish bilan birga tuzilishi jihatidan ham yanada rang - baranglashib va kengayib borayotgani hech bir adabiyotshunosga sir emas. Hozirgi o'zbek nasrida birgina bahs dialogning bir necha usullarini uchratishimiz mumkin. Bahs dialog qo'llanilgan asarlarning eng yaxshi namunasi sifatida Yo'ldosh Solijonov M.Mansurovning "Mangu jang" romanini misol qilib keltiradi. Mazkur roman boshdan oxirigacha munozara ruhiga qurilgan. Asarning asosiy qahramonlari Burhon to'kis bilan Akbar polvonning 20 - 30yillardan to 50 yillargacha bir - biriga qarama-qarshi tarzda o'tgan faoliyati romandagi asosiy g'oyani tashkil qila di. Bu kurash ayniqsa keskin dialoglarda o'zining yaqqol ifodasini topgan. Romandagi bahs dialog faqat Burhon bilan Akbar polvon o'rtasidagina emas, balki shartli ravishda yaratilgan Suvratdagi Burhon bilan Siyratdagi Burhon o'rtasida ham ro'y beradi. Bahs dialog roman voqealarini rivojlantirishga turtki berib, qahramonlarning ichki va tashqi qiyofasini chuqurroq ochishga ko'maklashishini adabiyotshunos Yo'ldosh Solijonov alohida ta'kidlab o'tadi.

Roman voqealari 1966 - yilning 26 - aprelidagi Toshkent zilzilasi tasviri bilan boshlanadi. Mana shu tasvirning o'ziyoq asarga qandaydir ziddiyatli holatni, to'lqinli qarama-qarshilikni olib kiradi. Roman qahramonlarining suhbatlari asosan haqiqat va yolg'on, sadoqat va aldov, xalqparvarlik va mansabparastlik o'rtasidagi jiddiy tortishuv asosiga quriladi. Qahramonlarning holatini muallif remarkalarda ham alohida ta'kidlaydi. Siyratdagi Burhon tabiatan ancha bosiq, yetti o'lchab bir

³⁸ Solijonov Y. XX asrning 80-90- yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T., 2002.

kesadigan, har bir so'zini o'ylab gapiradigan, suhbatdoshini ranjitib qo'yishdan andisha qiladigan donishmand odam timsolida namoyon bo'ladi.

Suvratdagi Burhon esa ancha shoshqaloq, o'zining nohaligini bilib, ichki bir tuyg'u bilan tan olib tursada, sirtiga suv yuqtirmaslikka behuda urinadigan, amalparast va xudbinligi so'zlarida ham aks etadigan kishi sifatida namoyon bo'ladi.

Suvratdagi Burhon bilan Siyratdagi Burhonning birinchi bob so'ngida quyidagi keskin bahs dialogi beriladi:

"Suvratdagi Odam .

O'zi seni odam o'rnida ko'rganmi? Umr bo'yi o'chakishib o'tdiku o'zing bilan. Lekin shu zahoti ich - ichidan boshqa bir nido kelib, unga e'tiroz bildirdi.

Siyratdagi adashi .

Nega endi umr bo'yi bo'larkana? Avvaliga sizlardan qalin do'st bo'lganmasku?

Suvratdagi Odam .

Bo'lsa bordir. Lekin shu do'stlikka birinchi bo'lib kim raqna soldi. U yuz xotirni ham bilmagan ! Endi ros mana hisdiqafasga ola ketdi y.

Siyratdagi adashi.

To'g'ri, u yuzxotirni bilmasdi. Haq turganda otasini ham ayammasdi. Lekin vijdonan aytganda, zamon o'zi shunaqa emasmidi, shuni talab qilmasmidi odamdan! Burhon cholning nazarida ichidagi odam negadir boshdan - oyoq oqqa o'rangan mitti cholga o'xshab ketar edi.

Suvratdagi Odam.

Do'stim - do'stim deysan. Zamon o'zi shunaqa emasmidi, deysan. Lekin loaqal biror marta senga bo'lishganini, tarafingni olganini eslaysanmi, o'zing!

Siyratdagi Odam.

-Sen nima deyapsan.

Suvratdagi Burhon.

-Jangda bo'lsa bordir. Lekin hayotdachi? Keyinchi - keyin ham shunday-ligicha qoldimi?

Siyratdagi Burhon.

Keyin. . . Darvoqe, keyin nima jin urdi, ertaga qanday sovuqchiliklar tushadi. Oldin o'zi nimadan boshlanib, kimdan o'tdi, yo o'sha daxlsiz bu'doydan boshlangan edimi hammasi..."¹

Romanning keyingi boblarida ham bu holatni kuzatish mumkin bo'ladi. Romanning 30 - yillarga bag'ishlangan boblarida voqealar bayoni bemor Burhon cholning xotirasida jonlanadi. Keyinroq muallif hikoyadagi voqealar rivojini o'z qo'liga oladi, chunki Burhon bu voqealarda faol ishtirok etadi.

“Boshqa adiblardan farqli o'laroq, M. Man surov o'z romanida Bahsdialog turining xarakteristika dialog shaklidan emas, balki ko'proq dialog holat shaklidan foydalanadi”² – deb ta'kidlaydi Yo'ldosh Solijonov.

Bahs dialoglarni suhbat mavzusiga qarab tadqiqotchi Yo'ldosh Solijonov quyidagi yo'nalishda bo'lishini ta'kidlaydi:

1. Falsafiy;
2. Ilmiy;
3. Maishiy;
4. Axloqiy.

Tadqiqotchi Odil Yoqubovning "Diyonat" romanidagi bosh qahramon professor Normurod Shomurodov bilan bog'liq dialoglarni asosan ilmiy mavzuda bo'lishini bayon qiladi. Mazkur romanida Odil Yoqubov ko'proq xarakteristika dialog usulini qo'llaydi. Adib yaratgan dialoglardan o'quvchi qahramonlar xarakterini ko'proq va chuqurroq bilib oladi. Xususan, muallif o'zining "Diyonat" romanida asosan dialog orqali qahramonlarning fe'l - atvorini, qalb va ongini xarakterlaydi. Muallif nutqi, dialog, remarka va replikalar orqali o'quvchi qahramonning xarakteri to'g'risida to'liq ma'lumot ola boshlaydi. Bu ma'lumotlar jamlanib qahramonlarning salobatli qiyofasini vujudga keltiradi.

Adabiyotshunos Yo'ldosh Solijonov yuqoridagi misollardan kelib chiqib, “Dialoglarda o'zga qahramonlar tomonidan berilgan bu ta'riflar muallif remarkalari orqali to'ldiriladi va isbotlanadi”¹ – deya ta'riflaydi.

¹ Mansurov M. Mangu jang. T., 11 – 12 – b.

² Solijonov Y. Nutq va uslub. T., 2002.

Ichki diologda qahramon ko'pincha ikki qiyofaga ajratiladi: uning "men"i va o'ziga "sen" deb murojaat qilishi. Odil Yoqubov romanning g'oyaviy mundarija sini o'quvchiga aniqroq yetkazish, konfliktni chuqurlashtirish, uning yechimiga asos yaratish maqsadida dialoglar imkoniyatini yanada kengaytiradi va ulardan mog'irona foydalanadi. Odil Yoqubov romanlarida bu qarama-qarshilik ayrim ishoralarni, dahanaki to'qnashuvlarni hisobga olmaganda hech qayerda oshkora tasvirlamaydi. Ammo syujet rivojidan anglashiladiki, ular ochiqchasiga to'qnashmasligi mumkin emas. Yo'qsa, konflikt yechimiga putur yetgan bo'lardi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun yozuvchi xayoldagi dialog turiga murojaat qiladi.

Xayoldagi bahs dialog asosiy qahramonlar xarakteriga xos muhim belgilar ularning nutqi leksikasi, sintaktik qurilishi, ohangi va ichki ma'nosida ochiq anglashilib turadi. Qahramonlar nutqidagi har bir so'z mantiqan asoslangan, avvaldan chuqur o'ylangan, suhbatdoshini og'ir ahvolga soladigan zalvorli aybnomadek yangraydi.

Bahs dialogda bironta ham remarka yoki replika berilmagan bo'lsada, qahramonning turli qiyofaga kirayotganligi, vaziyatni yumshatishga urina-yotganligi sezilib turadi. Buni Odil Yoqubovning "Diyonat" romani qahramoni Otaqo'zi nutqida uchratish mumkin:

"Pora emas, meva - cheva, sovg'a - salom, degandek, arzimagan podarka, Abror Shukurovich..."²

Bu dialog qurilishida eng ko'p qo'llanilgan tinish belgilari undov, so'roq va uch nuqtalar bo'lib, ularning har biri o'z o'rnida g'oyat muhim vazifani bajaradi. Qahramon nutqida qo'llanilgan undov belgilari suhbatdoshiga nisbatan cheksiz e'tiborni, mehr-u muqabbatni, uni ayashga, ehtiyot qilishga urinayotganligini, savol alomatlari unga achinishni, uch nuqtalar esa ogohlantirayotganligi, andisha qilayotganligi, ko'nglida aytolmayotgan, ammo aytishi shart bo'lgan gaplari

¹ Solijonov Y. XX asrning 80-90- yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T., 2002.

² Odil Yoqubov Diyonat, Roman. T., 1973, 23 – b.

ko'pligini, shu bilan birga so'zlarning ta'sirchanligini oshirish, o'ylab olishi uchun suhbatdoshi unga imkoniyat berayotganligini anglatadi.

Badiiy asarda ishlatilgan undov hamda so'roq belgilari esa ta'kidni, botinan inkor-u zohiran tasdiqni, ayni paytda kinoyani ham ifodalashini aytib o'tgan Yo'ldosh Solijonov quyidagi misolni fikr tasdig'i uchun keltirib o'tadi:

"Rahmat, o'rtog' Shukurov! Siz bugun ja... to'g'ri gaplarni gapiryapsiz! Bu gaplaringizni eshitib qoyil qolyapman umringizda biron bir noto'g'ri ish qilmagan odamga o'xshaysiz! Ammo sizga bitta savolim bor, o'rtog' Shukurov: Siz menga o'xshagan raislarning ishiga nimaga qarab baho berasiz?"

"Hosilga qarab! Planga qarab! Shunday demoqchimisiz?" "Balli, sizdan ham adolatli gap chiqar ekanku, o'rtog' Shukurov! Ammo hayot - mamotimiz shunga bog'liq bo'lgan bo'lsa nechuk osilasiz? Nechuk boshimga malomat toshini yog'dirasiz?"¹.

“Keltirilgan misolda tortishuv ob'ekti jihatidan odatdagi muomala, kundalik hayot tarzi, qahramonlar har kuni band bo'lgan ikir - chikirlar ekanligi sezilib turibdi. Aslida esa dialogning butun qurilishi suhbatdosh qahramonlarning haddan ziyod emotsional ekspressiv tuyg'ular og'ushida ekanligidan dalolat beradi”² – deb ta'kidlaydi Yo'ldosh Solijonov. Dialogning bu turidan yozuvchi Omon Muxtor ham "Ming bir qiyofa" romanida mahorat bilan foydalangan. Biroq, Omon Muxtor qo'llagan tasavvurdagi dialog "Diyonat" romanidagi dialog tuzilishidan shaklan ham, mazmunan ham tubdan farq qilishini ko'rish mumkin. Tadqiqotchi olim Yo'ldosh Solijonov bu farqlarni qiyidagicha ajratadi:

“Birinchidan, Otaqo'zining xayolida jonlangan dialog eslanishidan bir necha soat oldin ro'y bergan. Abdulla Hakim tasavvuridagi dialog esa hechqachon bo'lmagan. Shuning uchun u to'la ma'noda xayoliydir.

Ikkinchidan, Otaqo'zi xayolidagi dialog dramatiklashtirilgan shaklda qayta tiklanadi, o'quvchi bu suhbatda faqat Otaqo'zi bilan Abror Shukurovni ko'radi va

¹ Odil Yoqubov Diyonat, Roman. T., 1973, 267 – b.

² Solijonov Y. Nutq va uslub. T., 2002, 43 – b.

ularning ovozi eshitadi, xolos. Abdulla Hakim tasavvuridagi dialogda esa uchinchi obraz muallif ham qatnashadi.

Uchinchidan, "Diyonat" romanidagi dialogda zamon va makon aniq, Abror Shukurov xonasida bir necha soat davom etgan. "Ming bir qiyofa" romanidagi dialogda esa makon aniq bo'lsa ham (korchalonlar kaltaklab tashlab ketishgan xona) zamon kategoriyasi mavhum. Sababi bu dialogda Abdulla Hakim bilan Halimaning sevgi tarixi yoritiladi. Bu sevgi tarixining dialog shaklida bayon qilinishiga yozuvchining o'zi vaziyat yaratadi"¹.

Adabiyotshunos har ikki asar qahramoni suhbatini yoritir ekan, birinchi navbatda, ulardagi vaqt, tasavvur, zamon va makon tushunchalariga alohida e'tibor qaratadi. Shundan so'ng ularning qayerda, qachon, qay vaziyatda uchrashganlari, qanday sabablarga ko'ra birga bo'lmaganliklari haqidagi hikoyalar birma – bir bayon qilinadi. "Lolazor" romanida esa tasavvurdagi dialog qahramon nutqi tarkibida o'zlashtirilgan shaklda beriladi. Mazkur romanda dialogning barcha tip va turlari hamda shakllaridan unumli foydalanilgan.

Tasavvurdagi dialog romanning ayrim boblarida uchraydi. Yozuvchi suhbatdoshlarning nutqini o'zining izoh va luqmalari bilan boyitadi, qahramonlarning holati, xatti - harakati, mimikasini batafsil ifodalaydi. Yozuvchi Omon Muxtorning so'nggi yillarda yaratgan romanlarida an'anaviy dialoglarning qurilishi hamda mazmunini o'zgartirishga munosib hissa qo'shganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Bir qarashda adib asarlarida dialogga ko'p ham o'rin berilavermagandek tuyiladi. Aslida bu yozuvchining o'ziga xos uslubi hisoblanadi. Yozuvchi dialoglarning asar syujeti va kompozision qurilmasiga uzviy singib ketganligiga, muallif bayonining to'laqonli a'zosi sifatida voqelikni rivojlantirish hamda xarakter yaratishda muhim ahamiyat kasb etganligiga ishonch hosil qilamiz. Bunga misol qilib Omon Muxtorning tarixiy mavzuda yozilgan "Ishq ahli" romanini keltirish mumkin.

¹ Solijonov Y. XX asrning 80-90- yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T., 2002.

Mazkur roman Mir Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy yo'li to'g'risida o'ziga xos ma'lumotlar berish, asar lari va tarjimai holiga oid fakt hamda detallarni izlab topish, ular ustida ham badiiy, ham ilmiy mulohaza yuritish asarning asosiy g'oyaviy - estetik mohiyatini tashkil etadi. Roman o'zining syujeti va kompozision qurilishi, konflikti, qahra-monlar xarakterining ishlanishi jihatidan adib yaratgan boshqa asarlardan jiddiy farq qiladi. Romanda muallifning ijodiy uslubiga xos burama va shartli epizodlar yoki syujet chiziqlari, portret uchramaydi. Dialogning odatdagi shakli berilmagan, qahramonlar nutqi ham qo'llanilmaydi. Muallif Navoiy portretini chizish uchun tayyorgarlik ko'rish jarayonida kuzatganlari, o'ylarini mulohazalarini hamda 45 yasharligidan to'vafotiga qadar bo'lgan hayot yo'li qalamga olinadi.

Asarda Navoiy siymosiga quyidagicha ta'rif beriladi:

"U - bir Osmon.

U - bir Ummon.

Qamrash qiyin!"

"Hali hech kim Bu Osmon qa'riga ko'tarilmagan! Hali hech kim Bu Ummon tubini ko'rmagan!"¹.

Keltirilgan bu misoldan anglash mumkinki, muallif o'z asarida Navoiy timsolini o'zgacha uslub bilan yoritgan. Unda muallif o'z mulohazalarini shoshilmay, o'ylab, fikr tarozisida tortib, chuqur mulohaza yuritib, shoir g'azallarining ma'nosi va ohangidagi farqlarini aniqlaydi. Bu asarida Omon Muxtor bayonning hayotiyligini oshirishda va hikoyachi suhbatdoshni o'quvchiga yaqinlashtirishda dialoglardan o'z o'rnida unumli foydalanadi. Asarda berilgan dialoglar orqali Navoiy siymosi yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Shunisi e'tiborliki, bu romanda maktub dialoglarning namunalarini ham uchratish mumkin. Maktub dialoglarning vazifasi faqat asar kompozisiyasini to'ldirish, bo'limlarni birbiriga bog'lash, daftar dialoglarning qay tarzda yaratilganligini izohlash bilangina

¹. Omon Muxtor, Ishq ahli. Roman. – T.: Sharq, 2006., 7- 8- b.

chegaralanib qolmaydi. Ko'rinadiki, hozirgi o'zbek nasridagi dialoglar bir xil ko'rinishga ega emas. Ular orasida ham shakl va mazmuni, ham funksional tuzilishining rangbarangligi ham e'tiborni tortadi.

Dialog badiiy asarda mustaqil qurilmaga ega bo'lgan vosita bo'lishi bilan birga umumiy badiiy inshootning ajralmas bo'lagi hamdir. U muallif bayoni bilan turlicha munosabatga kirishadi va uning ro'yobga chiqishida muhim rol o'ynaydi. Dialog tizimiga chuqurroq kirib borgan sari uning hali - hanuzgacha tadqiqot ob'ekti bo'lmagan qirralariga duch kelaveramiz. Shulardan biri va ularsiz dialogning vujudga kelishi mumkin bo'lmagan qanotlari hisoblangan remarka va replika masalalariga adabiyotshunos Yo'ldosh Solijonov alohida e'tibor beradi va u ikkisiga quyidagicha ta'rif beradi: "Remarka va replika dialog qurilmasini harakatga keltiruvchi asosiy murvatlardir"².

Yirik tilshunos V. V. Vinogradov ta'kidlaganidek, dialogdagi "replika o'z holicha emas, balki taqqoslash va qarshilantirish tizimidagi xizmati bilan muhimdir"³.

Avvalo, remarka va replika atamalariga berilgan ta'riflar bilan tanishib chiqamiz. Adabiyotshunoslikka oid lug'atlarning deyarli barchasida remarka ham, replika ham faqat dramatik turga xos vosita sifatida izohlangan. Buning sababi dialog tarkibida muhim o'rin tutadigan remarka va replika elementlarining xizmati tor tushunilganligida, ularning vazifasini birgina dramatik asarlar doirasida cheklab qo'yilganligida deb bilish o'rinlidir.

"Remarka (fr. *remarque* - izoh) – drammatik asarlarda muallif tomonidan sahna voqeasining boshlanishi oldidan beriluvchi yoki uning kechishi davomida qavs ichida berib boriluvchi izohlar"¹.

² Solijonov Y. XX asrning 80-90- yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T., 2002.

³ Vinogradov V.V. О языке художественной литературы. - М., 1959., 477 - б.

¹ Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademyashr, 2013., 248 – б.

“Replika (fr, replique – javob, e’tiroz) – dialogning nutq subyekti almashishi bilan chegaralanuvchi qismi, bitta nutq subyekti tomonidan aytilgan nutq bo’lagi”².

“Badiiy asardagi remarka bayon kimning ti lidan olib borilayotgan bo’lsa, o’sha hikoyachining nutqi orqali yaratiladi. Replika esa asosan qahramonga tegishlidir. Aslida replika asarda ishtirok etayotgan shaxslarning bir - biriga javoban luqmasi bo’lib, u ixcham so’z va iboralardan tashkil topgan bo’lishi shart”³.

To’g’ri, ayrim romanlarda remar kasiz dialoglar ham uchraydi, ammo replikasiz dialog yaratilmaydi. Faqat "Replika asosida gina dialog yuzaga keladi. Ayrim hollarda replika dialog paytida u yoki bu qahramon tomonidan o’z-o’zicha, hech kimga qaratilmagan holda ham tashlanishi mumkin. Bunday holda replika qahramonning boshqalarga, vaziyat munosabatini bildiruvchi izoh vazifasini o’taydi”⁴.

Replika orqali dialogda ishtirok etayotgan suhbatdoshlar bir - biriga munosabat bildiradi, gapni baholaydi, uni yoqlaydi yoxud inkor etadi. O’tkir Hoshimov o’zining "Tushda kechgan umrlar" romanidagi "Tergov hujjatidan" olingan boblarda asosan "dialogreplika", Murodjon Mansurov esa "Mangu jang" romanida ko’proq "dialogremarka" usulidan foydalanganlar.

Hozirgi o’zbek nasrida namoyon bo’layotgan remarkalarning vazifasi hamda xizmat doirasini quyidagi jihatlariga ko’ra o’rganish zarur deb hisoblaydi Yo’ldosh Solijonov:

Dialogda ishtirok etuvchilarning nutqiy xarakteristikasini, tashqi qiyofasini, ayni va ziyatdagi holatini ifodalashi;

² Shu kitob. 251 – b.

³ O’zbek tilining izohli lug’ati. 2 tomlik, 1 tom. M , 1981, B.: 318, 336.

⁴ Timofeev L., Vengrov N., Kratkiy. Словар литературоведческих терминов, - М., 1963.. 128 - b.

Remarkaning dialog bilan payvandlashish usullari hamda ichki tarkibini o'rganish. Bunda muallif izohining dialog rivojlanishini ta' minlashdagi uslubiy o'rni inobatga olinadi;

Remarkada muallif foydalanayotgan tilga doir betakror xususiyatlarni o'rganish, ya'ni bunda qahramonlarning so'zlashuv tarzi, ular ishlatayotgan so'z hamda iboralarning zamon va makonga mosligi, leksik semantik va sintaktik qurilishi masalalariga e'tibor beriladi;

Remarka zimmasiga yuklangan axborotning estetik qimmatini o'rganish, ya'ni muallif ilgari surmoqchi bo'lgan g'oyaviy – estetik va syujet, kom-pozitsion niyatni o'quvchiga to'laroq yetkazishga ko'maklashadigan badiiy tasvir vositalarining ro'li hamda ularning nutqdagi stilistik o'ziga xosligini aniqlash;

Remarka bevosita muallif nutqi tarkibiga kiradi yoki uni kuzatadi, ma'lum maqsad sari yo'naltiradi;

Nutqdagi remarka asosini odatda fe'l so'z turkumi tashkil etadi va qahramonning harakati, imo - ishoralari yoki mimikasini qisqacha ifodalab ko'rsatadi. Muallif izohi va qahramonning ichki holati hamda kechinmalarini kengroq qamrab oladi;

Qahramonning kayfiyati, his - tuyg'ularini muallif replikaning o'zaro aloqasini ko'rsatish va muallif bayoni bilan replika munosabatlarining alohida xarakterini ochish yo'llari orqali berishga intiladi. Bunday paytlarda remarka katta rol o'ynaydi;

“Dialoglar tizimida remarkaning o'ziga xos tarzda joylashuvi, o'rin almashish usullari va ziddiyatli qiyoslashlar muhim ahamiyatga egadir.

Shunisi borki, dialoglardan oldin, orada yoki keyin kelgan muallif remarkalari hamda replikalar so'zlovchining ayni chog'dagi holatini g'oyat aniq va ko'rimli ifodalashga xizmat qiladi”¹.

¹ Solijonov Y. Nutq va uslub. T., 2002, 68 – b.

Dialog hamda remarka va replikaning bilvosita muallif nutqi bilan mutanosib-ligini ta'minlashda qahramon ishtirokidan qat'iy nazar uning strukturasida xilma-xil shakllar ro'yobga chiqaveradi.

Bulardan ayrimlari va hozircha o'zbek nasrida ko'zga tashlanayotganlari haqida Yo'ldosh Solijonov quyidagilarni izohlab o'tadi:

- 1) qahramon dialogda ishtirok etmaydi, balki uni chetdan idrok etadi, izohlaydi. Bunday shaklning eng yaxshi namunalari "Lolazor" romanida uchraydi.
- 2) bilvosita muallif nutqi orqali ma'lum bir fakt qayd etiladi, tasdiqlanadi, o'zganing yoki suhbatdoshlardan birining fe'l - atvorini, so'zlash manerasini baholaydi yoxud inkor qiladi. Bunga oid misollar "Mangu jang", "Tepalikdagi xaroba" romanlarida ko'p uchraydi.
- 3) qahramon dialogda bevosita ishtirok etadi va bir yo'la ikki vazifani bajaradi: birinchidan, o'zining nutqi hamda xatti – harakatlarini izohlaydi va baholaydi; ikkinchidan, ba'zan o'zganing nutqi va xulqiga ham munosabat bildiradi; Bunga misollarni O.Muxtor, M.M.Do'st romanlarida uchratish mumkin¹.

Dialoglarda qahramonlarning psixologik holati, xulq - atvori, xatti – harakatlari, so'zlanayotgan paytdagi nutqi tanlangan so'z va iboralardan aniq bilinib, anglashilib turadi. Suhbatdoshlarning nutqi ixcham, keskin va shiddatli holda ro'y beradi. Bu esa dialoglarning o'zbek badiiy nasrida favqulodda o'ziga xos va original hodisa ekanligini ko'rsatib beradi. Adabiyotshunos Yo'ldosh Solijonov badiiy nutq tiplari, tasnifi va qo'llanilishi borasida o'ziga xos qimmatli fikrlarni bildirib o'tadilar. Fikrlardagi yangiliklar dastavval, badiiy nutq tiplari va shakllarining rang - barangligida namoyon bo'ladi. Fikrlarning yaxlitligi va alohida salmoqli qismlarga bo'linishi, iboralarning tugallanganligi hamda mazmunni to'laroq ochishga bo'ysundirilganligi, davrga va o'quvchi saviyasiga mos keladigan uslub yaratishga intilish, obrazlar tizimini ishonarli tasvirlashda aniqlik, yaxlitlik, teranlik, ohanglar va ranglar quyuqligi Yo'ldosh Solijonov uslubining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Mamlakatimizda istiqlolning qaror topishi

¹ Solijonov Y. XX asrning 80-90- yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T., 2002.

adabiyotimizda ham yangicha obrazlar hamda mavzu va muammolarning qalamga olinishiga, ularning muallif tomonidan mahorat bilan tasvirlanishiga keng sharoit yaratildi. Yaratilgan bu sharoitlardan Yo'ldosh Solijonov ham o'z o'rnida unumli foydalandi. Yuqorida biz bular bilan qisqacha tanishib chiqdik.

2.2. O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING HOZIRGI DOLZARB MUAMMOLARI VA YO'LDOSH SOLIJONOV IJODI

Adabiyot fani jahonga yuz tutib, tobora yuksalish, yangilanish jarayonini boshdan kechirayotgan shu kunlarda eng dolzarb va muhim muammolarni tadqiqot markaziga olib chiqish va hal etish mamlakatimiz olimlari oldidagi ulkan vazifa bo'lib turibdi. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng fanning har bir sohalarida mazmunan teran va sifat jihatidan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun keng imkonoyatlar yaratildi. Yaratilayotgan keng imkoniyatlardan foydalanayotgan adabiyotshunoslik fani ham o'z obyektiga yangicha nazar bilan qarash, janrlar poetikasiga oid muammolarni chuqurroq o'rganish, ularni haqqoniy va teran tahlil qilish, yangicha adabiy – estetik mezonlar bo'yicha ish ko'rishga kirishdi. Adabiyotshunoslik fanini yuksaltirish va har tomonlama rivojlantirishda yangi – yangi izlanishlar, tadqiqotlar olib borayotgan olimlardan biri, Farg'ona farzandi Yo'lishxo'ja Solijonov hisoblanadi. Adabiyotshunos o'z izlanishlari davomida fanimizga juda ko'p va xo'p xissa qo'shib kelmoqdalar. Tadqiqotchining ilmiy izlanishlariga nazar tashlasak, xalqimizning o'lmas og'zaki ijodidan boshlab, to hozirgi kunimizgacha bo'lgan adabiy jarayonni barcha bosqichlarini chuqur tadqiq etgan mutaxassis ekanligiga ishinch hosil qilamiz. Yo'ldosh Solijonov qalamga olgan muammolar doirasi g'oyatda keng. Tadqiqotchi olim o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab o'zbek adabiyotining muammolaridan tortib, to birinchi kitobi chiqqan yosh shoir va yozuvchilarga qadar, adabiyotimizning poydevoriga g'isht qo'ygan shoirlar, dramaturglar, nosirlar ijod uslubigacha tahlil doirasiga tortdi. Adabiyotshunos Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Oybek, Said Ahmad, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Odil Yoqubov, Shukur Xolmirzayev, To'g'ay Murod, Omon Muxtor, Murod Muhammad Do'st, Xurshid Do'stmuhammad kabi o'zbek adiblari hamda Kamyu, Sizif, Absurd singari

jahon adabiyoti vakillari ijodiga kuchli e'tibor bilan qaradi. Ulardan mahorat sirlarini ustalik bilan o'rgandi. O'z o'rnida ular ijodini tadqiq ham qildi.

Yo'ldosh Solijonov o'zining “ Ijodda aniqlik – mahorat mezon ” nomli maqolasida Abdulla Qodiriy ijodiga va nasrimiz yangiliklariga alohida e'tibor qaratdi. Tadqiqotchi nasr haqida fikr yuritir ekan, u “ Nasr – aniqlikni yoqtiradi. Faqat tarixiy yoki hujjatli asarladagina emas, balki yozuvchining ijodiy fantaziyasi asosida yaratilgan badiiy asarlarda ham fakt va raqamlar, perrsonajlar qiyofasi, yoshi, zamon va makon aniq bo'lgani ma'qul. Bu, birinchidan o'quvchini ishontiradi. Ikkinchidan, aniqlik san'atkor mahoratining darajasini ko'rsatadigan mezon hamdir ”¹. Darhaqiqat, adabiyotda, ayniqsa, nasrda aniqlik kerak. Chunki, bu aniqlik ijodkorning mahorat darajasini ko'rsatadi va o'quvchini voqelikka ishonchini orttiradi. Bu borada Yo'ldosh Solijonov o'zbek realistik prozasining asoschisi Abdulla Qodiriyning ijodini ibratli hisoblaydi. Adib o'zining har bir asarida, u hikoyami, qissami, roman yoki oddiy maqolami, bundan qat'iy nazar, avvalo, fikrning tiniq, fakt va raqamlarning aniq, mulohazalarining ravshan bo'lishiga erishadi. Uning ijodida mavhumlik mutlaqo zid tushunchadir.

Abdulla Qodiriy o'z ijodi davomida Aristotelning so'z san'atiga xos asosiy fazilatlardan biri “fikr teranligidir” degan o'gitiga qat'iy amal qilgan. Aniqlik borasida fikr yiritish jarayonida Yo'ldosh Solijonov Abdulla Qodiriyning “ O'tkan kunlar”, “ Jinlar bazmi”, “ Juvonboz”, “ Kolvak maxzumning xotira daftaridan ”, “ Obid ketmon”, “ Mehrobdan chayon ” asarlariga alohida e'tibor qaratadi. Yuqorida keltirilgan asar qahramonlarining yoshi 20 - 24 orasidagi o'spirin yigit. Bu ham Abdulla Qodiriyning o'ziga xos uslubi hisoblanadi. Har bir asar voqealari aniq, sodda va ta'sirli ifodalangan.

Yo'ldosh Solijonov “Yozuvchining zamon va qahramonga munosabati”

¹ Solijonov Y. Haqiqatning sinchkov ko'zlari. – T., 2009., 10 – b.

nomli maqolasida G'afur G'ulom ijodi orqali zamon hamda makon tushunchalarini talqin qiladi. Har bir ijodkor o'z zamoniga, unda ro'y berayotgan voqea va hodisalarga inson obrazi orqali munosabat bildiradi. Yozuvchining o'z oldiga qo'ygan maqsadi, o'quvchiga yetkazmoqchi bo'lgan fikri shu munosabat orqali yuzaga chiqadi. "Har qanday badiiy asar muallifi zamonga, makonga, unda yashovchi qahramonga u yoki bu darajada munosabat bildiradi, ya'ni ularni yo yoqlaydi, yo inkor qiladi. Ba'zi hollarda butunlay inkor qilmasdan uning "tuzalish" ga umid bildiradi va kitobxonni ham shunga ishontirishga urinadi"² – deb ta'kidlaydi Yo'ldosh Solijonov.

G'afur G'ulomning nasriy asarlari mavzu, zamon, makon, qahramon, g'oya, muammolarning ifodalanishi, syujeti, kompozitsion qurilishi jihatdan g'oyat rang – barang hamda o'iga xosdir. Shu jihatlarni tadqiq qilgan Yo'ldosh Solijonov yozuvchi asarlarida muallif munosabatining yo'nalishiga ko'ra quyidagi shakllarni aniqlaydi:

1. Zamonni ham, makonni ham, qahramonni ham inkor etuvchi hikoyalar. Bu toifaga yozuvchining "Hiylayi shar'iy", "Elatiyda bir ov", "Farzandi solih" kabi hikoyalari misol bo'ladi.

2. Zamon va makonni tasdiqlab, qahramonni inkor etuvchi hikoyalar. Bular qatoriga "Chorbozorchi", "Eshonobod" hikoyalarini kiritish mumkin.

3. Zamonni ham, makonni ham, qahramonni ham tasdiqlab, qahramon harakteridagi bitta qusurni inkor etuvchi hikoyalar. Masalan, "Yigit", "To'rt hangoma", "Eri bilaan bahs boylashgan xotin" hikoyalari.

"Quyosh va nur kuychisi" nomli maqolasida esa Yo'ldosh Solijonov Oybekning "Na'matak" she'riga to'xtalib o'tadi. Shaklan va mazmunan nihoyatda yangi, insonning sokin tuyg'ularini to'lqinlantirib yuboradigan misralarda Oybek hayotning mangu kurashini, ichki ziddiyatni, ezgulikka intilib yashashning o'lmas namunasini aks ettira olgan. Oybek ijodida bunday

² Shu kitob., 24 – b.

jozibali, sehrli, hislarni oshiradigan, tuyg'ularni junbushga keltiradigan she'rlar bir qancha. "Biroq "Na'matak" Oybek ijodidagina emas, balki umuman o'zbek she'riyatida mazmunan teranligi, shakli – shamoyilining originalligi, badiiy tasvir vositalariga boyligi bilan yagonadir"¹ – deb Yo'ldosh Solijonov mazkur yuksak baho beradilar.

"Na'matak" she'ri mumtoz Sharq lirikasining muxammas janriga xos har bandi besh misralik tarzida yaratilgan, lekin ular qofiyalanishi jihatidan muxammas janri talablariga to'g'ri kelmasligini, she'r qofiyasi tartib bilan emas, o'zaro kesishgan tarzda kelishini tadqiqotchi alohida ta'kidlab o'tadi. She'rning har bir bandi o'ziga xos qofiyalanish tizimiga ega. Masalan, she'rning birinchi bandi "a- b- v – b- a" shaklida bo'lsa, ikkinchi bandi "v- g- d – b- v", uchinchi bandi "d- a- a- a- d" hamda to'rtinchi band butunlay o'zgacha "e- j- z- a- e" tarzida qofiyalanadi. Shoir ohangni kuchaytirish aytayotgan fikriga urg'u berish niyatida har bir bandning beshinchi misrasini o'zaro qofiyalashga urinadi. Bu orqali bandlarda ifodalanayotgan fikrning yaxlitligini, ijodkor g'oyaviy niyatining kompozitsion markaz bilan bog'lanishini ta'minlashga erishadi. Bu esa Oybek ijodining dastlabki bosqichidayoq usta san'atkor sifatida shakllana boshlaganidan dalolat beradi.

Yo'ldosh Solijonov o'zining "Detallar tilga kirganda" nomli maqolasida asarlarda ma'lum bir vazifa bajaruvchi detallar borasida fikr yuritadi. Buni Shukur Xolmirzayev ijodi misolida ko'rib chiqadi. Shukur Xolmirzayev ijodida detallarning o'ziga xos o'rni borligini ta'kidlaydi. Ijodkorning topqirligi tufayli qo'llanilgan detallar o'ziga xos muhim vazifa bajaradi. Janrning har bir turida detal alohida ro'l o'ynaydi. Detal asar syujetini hararatga keltiruvchi muhim omil hisoblanadi. Yo'ldosh Solijonov detallari sinchiklab o'ganar ekan, Shukur Xolmirzayev ijodiga e'tibor qaratadi va quyidagilarni misol qilib keltiradi:

¹ Shu kitob., 33 – b.

1. “O’sh pastlikka egilib o’sgan gujumcha ostida turibman. Kursida . kursining oyoqlari yerga botib ketgan. Namgarchilik- da. Aytdimku, yo sakkizinchi, yo to’qqizinchi may edi. Jiydalar gullagan. Unisining shoxida bir bulbul sayrasa, bunisining shohida bir bulbul sayraydi. Xo’roz – makiyon”.
2. “Yomg’ir shunday kuch bilan quay boshladiki, bekat ayvonida turishning iloji qolmadi. Buning ustiga, gumbillab shamol esar, yomg’irni bukib – qayrib, ayvon ostiga urar edi. ”
3. “Do’lana shunday turibdi. Yo – yolg’iz deng. Atrofda na’matak butalari ham yo’q. o’smaydi – da bu suvsiz toshloqda. Ammo do’lana! Qoyilman : suvni yerdan ichar ekan? Ha – ha tomiri chuqur ketganda yantoqqa o’xshab. Kungay tomonida oppoq- oppoq gullari ochilib turar edi. ”

Yuqorida keltirilgan “gujumcha”, “yomg’ir”, “shamol”, “do’lana” kabi detallar shunchaki peyzaj manzarasini to’ldirish, go’zallikni kuchaytirish niyatida keltirilayotgani yo’q, balki ular hikoya qahramonlarining xarakteriga , tabiatiga va taqdiriga ma’lum darajada daxldordir.

Adabiyotshunos Yo’ldosh Solijonov “Haqiqatning sinchkov ko’zlari” kitobida badiiy nutq, uning asarlarda qo’llanilish darajasi haqida fikr yuritadi. So’z hamda nutq har bir ijodkorning asosiy quroli hisoblanadi. “Badiiy asarning jozibasi, sermazmun va puxtaligi birinchi navbatda, yozuvchi nutqining rang – barangligi, salmog’i, leksik va semantic boyligi bilan belgilanadi”³⁹ - deydi Yo’ldosh Solijonov. Ha, yozuvchi nutqi qanchalik ixcham, lo’nda, chiroyli, har xil yuklardan holi bo’lsa, yaratilgan badiiy asar shunchalik mukammal bo’ladi. Nutq go’zalligi esa, o’z navbatida, badiiy adabiyotning sifatini belgilovchi asosiy omollardan biri hisoblanadi. Har bir so’zni o’z o’rnida qo’llash ijodkordan mahoratni talab etadi. so’z tanlay bilishning mahorati to’g’risida atoqli adib M. Gorkiy shunday degan edi: “Faktlar zahirida yashiringan ijtimoiy hayot ma’nosini uning muhimligi, to’laligi va yorqinligicha tasvirlashni o’z oldiga vazifa qilib qo’ygan badiiy adabiyotdan

³⁹ Shu kitob., 104 – b.

ravon va tushunarli til, puxta tanlangan so'zlar talab etiladi. Hozirgi yozuvchilar esa, ana shunday tanlab olishning naqadar ahamiyatli ekanini yaxshi tushunmaydilar, bu asarning sifatini juda ham pasaytirib yuboradi"¹.

Keltirilgan bu fikrdan anglashilib turibdiki, badiiy adabiyotda sifat o'zgarishining yuz berishi, eng avvalo, tilda ixchamlik, mayinlik, soddalik va ravonlikka erishish bilan o'lchanadi. Badiiy nutq, uning asarlarda qo'llanilishi borasidagi mulohazalar bugungi kun adabiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Abdulla Qodiriy o'z asarlarida har bir so'zga, uning qo'llanilish o'rniga, xarakter tabiatiga mutanosib bo'lishiga alohida e'tibor qaratadi. Bu ayniqsa, ijodkorning "O'tgan kunlar" romanida yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Bu jihatlarni Oybek va G'afur G'ulom ijodida ham uchratish mumkin. Ular ham har bir so'zdan mohirlik bilan oqilona foydalanadilar.

Asarni ravon til bilan yozish, o'quvchiga o'zining, qahramonining his-tuyg'ularini, kayfiyatini yuqtira olish yozuvchilik mahoratining muhim qirralaridan hisoblanadi. Badiiy asarlarda qo'llaniladigan ayrim holatlar badiiy nutq tiniqligi va badiiyligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chinakam san'atkor – yozuvchi esa, badiiy nutq imkoniyatlarini chuqur va puxta egallashi, adabiy til hamda xalq jonli so'zlashuv nutqidan unumli va o'rinli foydalana olishi kerak. "Dunyoda badiiy so'zning kuchiga teng keladigan hech narsa yo'q. U kishining ma'naviy dunyosini boyitadi"²– deb ta'kidlaydi Yo'ldosh Solijonov. Shunday ekan, har bir ijodkor pala- partishlikka also yo'l qo'ymasligi, bachkana iboralarni mutlaqo qo'llamasligi, so'zdan oqilona foydalanishi kerak.

Tadqiqotchi bugungi kunda badiiy asarlarda qo'llanilayotgan dialog, remarka va replikalarga ham alohida e'tibor qaratadi. Ulardan foydalanishdagi yutuq va kamchiliklar borasida fikr yuritadi. Dialog bilan muallif remarkasini mazmunan bir - birining mantiqiy davomi sifatida yuzaga keladigan jarayon

¹ M. Gorkiy Adabiyot haqida. T., 1962., 240 – 241- b.

² Solijonov Y. XX asrning 80-90- yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T., 2002. 23- b.

hisoblaydi. Shu orqali qahramonning ichki replikasi yanada aniqroq ko'zga tashlanadi va uning tabiatidagi turli xarakterlar yaqqol ko'rinishini aytib o'tadi.

Ba'zi asarlarda remarkalar, asosan, qahramonlarning tashqi qiyofasini ko'rsa-tishga bag'ishlangan bo'ladi. Shu orqali o'quvchini uning faoliyati va xarakteri bilan yaqindan tanishtirishga erishadi. Shu boisdan asar qahramonlarining tashqi qiyofasida paydo bo'layotgan o'zgarishlar o'quvchida unga nisbatan qiziqish va ko'nglida muvham savollar uyg'otadi. Ba'zi dialoglar orasida hech bir qahramonning ichki nutqi berilmaydi. Zero, ularning tili bilan dili birligi muallif remarkalari hamda javob replikalari orqali ochiq anglashilib turadi.

Yozuvchi M.Mansurov ustozlari va tengdoshlari ijodidan dialog strukturasini ko'p tarmoqli qilib qurishi bilan ajralib turadi. Dastavval, muallif jonli dialoglarda ishtirok etayotgan suhbatdoshlarning nutqida ko'ta- rilayotgan mavzu va muammoga qarab, zamon va makonga ko'ra tashqi shaklini belgilashga e'tibor beradi. Masalan, "Lolazor" romanining "Bemor" boblaridagi nutq ko'proq retrospektiv bayon asosiga qurilganligini Yo'ldosh Solijonov ta'kidlab o'tadilar. Shunga ko'ra dialog ham ko'pincha qahramon xotirasida qayta tiklanadi. Bunday bayondagi dialoglarning ba'zilarida hikoyachining o'zi ishtirok etmaydi. Shuning uchun bunday suhbat jarayoni yo o'zlashtirma gap, yoki ko'chirma gap shaklida qo'shtirnoq ichida beriladi.

“O'zlashtirma gap shaklida berilgan dialoglar hech qanday remarka va replikasiz qahramon nutqiga chatishib ketgan bo'ladi. Romanda juda ko'p o'rinlarda yozuvchi dialog strukturasini isloh qiladi, ya'ni dialog ro'y bergan zamon va makonga, vaziyat va muhitga qarab ularni o'zlashtirma yoxud ko'chirma gap shaklida beradi. Ba'zida esa ular bir - birini taqozo qiladi. Masalan, Yaxshiboevning Oliyaga ko'ngil qo'ygandan keyin Muhsinadan ajrash uchun u bilan qilgan suhbat, Zohid bilan telefondagi so'zlashuvi, Saidqul Mardon bilan Bulduruqda ko'chat o'tkazayotgan paytdagi dialogi yangicha shaklda tuzilganligi bilan e'tiborni tortadi”¹ – deydi tadqiqotchi Yo'ldosh Solijonov.

¹ Solijonov Y. XX asrning 80-90- yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T., 2002. 23- b.

Darhaqiqat, bunday dialoglar odatdagi ko'rinishdan farq qiladi. Bu dialoglar zamon va makon nuqtai nazaridan shunday shaklni talab qilgan. Ayrim asarlarda real dialoglarning birdan xayoliy dialogga aylanib, qo'shtirnoqdan tashqari ishora belgilarisiz tashkil etilishi ma'lum ma'noda qahramon bayonining ham xotiraga asoslanganidan dalolat beradi.

Badiiy asarda muallif remarkasini mazmuniga ko'ra Yo'ldosh Solijonov quyidagi turlarga ajratadi:

- a) vaziyat remarkasi;
- b) holat remarkasi;
- v) portret remarkasi;
- g) peyzaj remarkasi.

"Jimjitlik", "Mangu jang" romanlarida ko'proq holat remarkasi qo'llanilgan bo'lsa, "Diyonat" va "Tushda kechgan umrlar" romanlarida asosan portret remarkasidan foydalanilganligiga duch kelamiz. Murod Muhammad Do'st bilan Omon Muxtor o'z asarlarida vaziyat remarkasiga ko'p e'tibor bersalar, "Oq qushlar, oppoq qushlar" hamda "Lolazor" romanlarida perso -najlar nutqi peyzaj, atrof - muhit va narsa buyumlarni ifodalovchi remarkalar bilan boyitiladi"¹.

Dialogda suhbatdosh replikasiga nisbatan so'zga reaksiya va kuzatayotgan odamning xatti – harakati yoki o'sha paytda paydo bo'lgan vaziyatga reaksiya tarzidagi ikki xil ko'rinish yuzaga kelishi haqida Yo'ldosh Solijonov ko'p bor ta'kidlab o'tdilar. Bunga misol qilib, "Lolazor" romanida Nazar Yaxshiboev bilan Oshno o'rtasidagi suhbatni keltirish o'rinlidir. Dialogda ishtirok etayotgan suhbatdoshlardan biri ikkinchisining xatti - harakatiga reaksiya bildirganda esa uning nutqidan ko'zlangan asosiy maqsad keyingi o'ringa suriladi. Yozuvchi dialogni syujet talablariga bo'ysundirar ekan, turli yo'llar bilan har bir replikaning axborot yetkazish vazifasini oshirishga urinadi. Bunday paytda dialog tuzilishida ishlatilayotgan replica bilan muallif remarkasi o'rtasidagi mutanosiblikka, ya'ni ularning bir – birini taqozo etishi

¹ Solijonov Y. Nutq va uslub. T., 2002., 98 – b.

va to'ldirishiga alohida e'tibor berishi talab qilinadi. Agar muallif tomonidan yaratilayotgan hayotiy manzara bilan badiiy vaziyat tasviri o'rtasida tengsizlik ro'y bergudek bo'lsa, dialog tuzilishida uzilish paydo bo'ladi. Bunday tensizlik ro'y bermas-ligi uchun ham muallif remarkaga murojaat qiladi. Buni muallif remarkasining davomida bilib olish mumkin. Muallif remarkasi va replikalar faqat dialogning qiziqarli, mazmunli chiqishiga xizmat qilibgina qolmay, o'z navbatida asar voqealarining yangi epizodlar bilan boyitilishiga ham hissa qo'shadi. Navbatdagi tugunning paydo bo'lishiga yordam beradi, voqealar rivojini ta'minlaydi. Har bir muallif remarkasi xarakterning yangi bir yashirin qirrasini ochishga, portretini mukammallashtirishga ko'maklashadi va bayonni boyitadi. Replikalar esa xarakterning individual qirralarini ochishda beqiyos ro'l o'ynaydi. Remarkalar kengayib, yaxlit tasviriy axborot majmuini vujudga keltirganida biryo'la bir necha kishining xarakteri, holati ochiladi. Dialog remarkasiz ro'y berishi ham mumkin, bunday dialoglarda remarka vazifasini ko'pincha replika uchun tanlangan so'zlar ado etadi. Replika ko'pincha nutq egasining ruhiy holatini ochadi, ayni chog'da suhbatdoshining o'ziga nisbatan munosabatini ham ravshan ko'rsatadi.

Umuman, xulosa qilib aytganda, XX asr o'zbek prozasi taraqqiyotida dialog muallif bayoni bilan mustahkam aloqa o'rnatishga erishdi. Natijada uning funksional tuzilishi yanada takomillashdi. Dialogning hozirgi zamon nasrida ko'zga tashlanayotgan o'ziga xos yangiliklarini dialog bilan bayonning uslubiy aloqadorligi hamda xarakteridan, ularning ichki qurilmasidan, tarkibidan, qola versa, muallif izohlari va so'zlarining unga mosligidan, bir - birini taqozo etishi hamda boyitishidan izlash o'rinlidir.

“Dialogda qahramon nutqini individuallashtirish eng muhim muammolar-dan biri sanaladi. Bunda yozuvchi adabiy tilning leksik, fonetik va sintaktik boyligidan foydalanishigina kamlik qiladi. Buning uchun san'atkordan qahramoni yashayotgan joyiga xos til xususiyatlarini, sheva hamda lahja elementlarini yaxshi bilmog'i talab etiladi. Badiiy asarda xalq jonli so'zlashuv nutqining qo'llanilishi tarbiyaviy - tabiiy ehtiyoj talablariga ko'ragina emas, balki

badiiy xarakterologik vazifalar nuqtai nazaridan ham muhimdir”¹ – deydi adabiyotshunos Yo’ldosh Solijonov.

Xullas, ma’lum bo’ladiki, remarka va replikalarning vazifa doirasi ancha keng va ko’p ekan. Demak, uning xizmat ko’lamini birgina dramatik asarlar bilan chegaralab qo’ymasdan, nasriy asarlarda ham remarka va replika dialogni tashkil etish hamda uning tuzilishini takomillashtirishda katta rol o’ynashini anglash dakor ekan. Badiiy asarda dialog strukturasining shakllanishi va mukammallashtirishida muallif izohi bilan qahramon nutqining o’rni muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Remarkasiz kelgan dialoglarda ko’pincha suhbatdoshlar bahsining muhimligi, keskinligi, zamon va makonning tig’izligi hollari uchraydi.

Tadqiqotchi roman haqida fikr yuritar ekan, mustaqillik yillarida o’zbek adabiyoti, xususan, uning roman janri chinakamiga sifat yangilanishini boshdan kechirganligining guvohi bo’lamiz. Bu davrda erishilgan muhim yutuqlardan biri adabiyotimizda yaratilgan INSON obrazi hisoblanadi. “So’nggi yillarda yaratilayotgan romanlar - deydi, Yo’ldosh Solijonov – voqealar tizimining chuqur tasodiflarga boyligi, miflar, afsona va rivoyatlardan unumli hamda o’rinli foydalana bilishi, madaniy – ma’rifiy, diniy – ma’naviy qadriyatlarimizning barhayotligini isbotlovchi tasavvufiy qarashlarni singdirishga urinishi bilan e’tiborni tortmoqda”.² Bu davrda yaratilgan romanlarning bayon uslubidagi ko’p ovozlilik, tasvirdagi ma’joziylik fazilatlari ham xarakterlidir. Shu bilan bir qatorda hayot hodisalarini imkoni boricha kengroq qamrab olish, mustaqil yurtning o’tkir, jiddiy, dolzarb muammolarini jadal va jasorat bilan ko’tarib chiqish, ularni ifodalashda yuksak badiiy – estetik tamoillar nuqtai nazaridan yondashish, hayotiy muammolarni zamon talabiga ko’ra, hozirjavoblik bilan haqqoniy aks ettirish zaruriyati ortdi. Buning natijasida, zamonamiz qahramonlarining axloqiy –ma’naviy qiyofasi istiqlol yillarida yaratilgan asarlarda xilma-xil usullar orqali namoyon bo’la boshladi. Shularga

¹ Solijonov Y. Nutq va uslub. T., 2002., 103 – b.

² Roman – kashfiyotlar manbai // O’zbekiston adabiyoti va san’ati . – 5.09.2003.

asoslangan holda Yo'ldosh Solijonov quyidagi to'rt yo'nalishni alohida ko'rsatib o'tadi. Bular:

1. Falsafiy – realistik yo'nalish;
2. Ramziy – ma'joziy yo'nalish;
3. Sarguzasht – fantastik yo'nalish;
4. Dedektiv yo'nalish.

Darhaqiqat, keltirilgan yo'nalishlar adabiyotda o'ziga xos o'ringa ega. Keyingi yillarda ayrim ijodkorlar roman janri imkoniyatlari kengligidan foyddalanib, unga xohlagan narsani olib kirishga, istagan maqomda hikoya qilishga urinmoqdalar. Natijada, bunday asarlar bir uyum voqealar tafsilotidan iborat xomashyoga aylanib undan asosiy masalani toppish qiyin kechmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, hozir yaratilayotgan ayrim romanlarda tilga olgudek muammo, keyin huzur qilib so'zlagudek syujet ko'zga tashlanmaydi. Buning ustiga so'z va voqelik ham qadrsizlanib bormoqda. Asar qahramonlarining gap – so'zlari, o'y – fikrlari, xatti – harakatlarida mantiq, ishonch, tartib yo'q. Xususan, Yo'ldosh Solijonov “Muammo qo'ya bilish va uni ishonarli hal etish romanning saviyasi qay darajada ekanligini ko'rsatuvchi muhim mezondir.

Ayonki, roman xalqning ijtimoiy – siyosiy, ma'naviy- ma'rifiy hayotida va qalbida ro'y berayotgan inqilobiy hodisalarni tasvirlashga mas'ul janrdir”¹- deydi. Darhaqiqat, so'z bilan to'ldirilgan har qanday asarni roman sifatida tavsiya etish, badiiy ijodga yengil qarash mensimaslikdir.

Istiqlol davri adabiyotining muhim xususiyatlaridan yana biri sifatida Yo'ldosh Solijonov tom ma'nodagi polifonik, ya'ni ko'p ovozli romanlarning yuzaga kelishini aytadi. Ko'povozlilik aslida o'zbek adabiyoti uchun yangilik emas. Biroq, Murod Muhammad Do'stning “Lolazor”, Omon Muxtorning “Ming bir qiyofa”, “Ko'zgu oldidagi odam”, “Ffu”, “Tepalikdagi xaroba” asarlarida polifonik roman qahramoni mutafakkir shaxs qiyofasida namoyon

¹ Roman – kashfiyotlar manbai // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – 5.09.2003.

bo'ladi. Bu jihat asar mazmunini boyitadi, ichki va tashqi hayot ziddiyatlarini kuchaytiradi, inson qalbini to'ldiradi. Polifonik romanlarning syujet qurilishi va kompozitsion tuzilishi ham odatdagi romanlardan farq qiladi.

Xullas, istiqlol davrida o'zbek adabiyoti sahifalariga ko'plab asarlar qo'shildi. Bu davrda yaratilgan romanlarda odam va olam konsepsiyasini tahlil qilishga yangicha nuqtai nazar bilan yondashish tamoyili yuzaga keldi.

Yo'ldosh Solijonov "Shoir ko'p, ammo she'r-chi?" nomli maqolasida o'zini "shoirman!" deya ko'ksiga urib kelayotgan minglab qalamkashlar tizmalari orasidan she'r deb atashga arzigulik mo'jizani qidirib toppish amri mahol ekanini yoritib beradi. Bundan chorak asr muqaddam atoqli adabiyot-shunos olim, O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharofiddinov "She'r ko'p, ammo shoir-chi?" deya badiiy ijod mas'uliyatini, tuyg'usini his qilmagan qalamkashlarni qattiq tanqid ostiga olgan bo'lsalar, bugun Yo'ldosh Solijonov "she'r" deb atashga munosib bo'lgan mo'jizani qidirmoqda. Aslida, so'zning o'zi bir mo'jiza. U o'zganing holatini, ruhiyatini, qalbini anglash vositasidir. Yo'ldosh Solijonov iborasi bilan aytganda, "She'r qalb bilan hayotning qo'shiluvidan dunyoga keluvchi farzanddir"¹. Darhaqiqat, she'rning go'zal bo'lishi uchun ma'no kerak. Satrlarga kattaroq ma'no yuklash uchun so'zni tanlay bilish va o'z o'rnida qo'llash joizdir. Tanqidchi Yo'ldosh Solijonov mazkur maqolasida Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ma'ruf Jalil, Rauf Parfi, Usmon Azim, Azim Suyun, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo singari o'zining ham, so'zining ham qadriga yetadigan shoirlar ijodini namuna qilib ko'rsat-sa, Bahrom Ro'zimuhammad, Muhtarama Turkoy, Oymomo Obidova, Odiljon Hotamov, G'ayrat Majid, O'ktam Mirzayor, O'tkir Xidirov kabi havaskor shoirlar bitgan satrlarini qattiq tanqid ostiga oladi.

Romanlarda noo'rin, keraksiz so'zlarni ko'p qo'llab, uning ma'nosiga putur yetkazgandan ko'ra, aniq, mazmunli jumladan foydalanish ma'quldir.

¹ Shoir ko'p , ammo she'r-chi? // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – 18.07.2003.

She'rlar yozishda ham qofiya ustun bo'lib, ma'no yo'qolsa, yoxud ma'no bo'lib tartib bo'lmasa, u holda yozilgan asarning qadri pasayadi.

Bugungi kunda o'zbek adabiyotida dolzarb muammolar talaygina. Biz shulardan ayrimlariga to'xtaldik va ular borasida adabiyotshunos, tadqiqotchi hamda tanqidchi olim Yo'ldosh Solijonov bildirgan fikrlarni ko'rib chiqdik. Bir so'z bilan aytganda, barcha kamchilik, muammo, qusurlarning negizida so'z, badiiy so'zga e'tiborning sustligi, uni qo'llashda yo'l qo'yilayotgan xato-liklar ekani barchamizga yaxshi ayon bo'ldi. Har bir san'atkor, u nasrda ijod qiladimi, yoki nazmdami, eng muhimi, yaratgan asarlari, sher'larida ma'no – mazmun, aniqlik, soddalik va ravonlik yetakchi bo'lishi zarur.

XULOSA

Adabiyot shunday bir chamanzorki, uning bo'stonida gul ko'p, suman ko'p. Shunday bo'lsa – da bu bo'stonning o'z ijodkori, sevikli yozuvchisi, adabiyot-shunosi, nazariyotchisi, tanqidchisi bor. Adabiyotning ana shunday jonkuyar adiblaridan biri Yo'ldosh Solijonov hisoblanadi. Ulug'lar haqida biror narsa yozish va ma'qul qilish oson emas, albatta. Ayniqsa, ustozing to'g'risida. Chunki – yozayotganingda u insonning mahorat maydonini to'liq yoritib bera olishdek mas'uliyat hamda biroz qo'rquv qamrab oladi. Biroq, bu borada menga ustoz Yo'ldosh Solijonovning o'zi madad berdi. Uztoz etagida mahkam tutib, fanning mashaqqatli yo'liga kirgan shogirdlari adabiyotshunoslikning turli yo'nalishlarida samarali tadqiqot olib bormoqdalar. Ular Yo'ldosh Solijonovning iftixori bo'lib ijod qilmoqdalar.

Yo'ldosh Solijonov ijod bo'stoniga erta qadam qo'ydi. O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasining a'zosi, filologiya fanlari doktori, taniqli munaqqid Yo'ldosh Solijonovning ilmiy, ijtimoiy – amaliy faoliyatiga bag'ishlangan bitiklar ham talaygina. Hech kimga sir emaski, adabiyot mavzu rang – barangligini, faollikni, fidoiylilikni, o'z burchini chuqur tushungan fuqaro bo'lishni taqazo qiladi. Yo'ldosh Solijonovning ko'p maqolalari ana shunday chuqur fuqarolik burchi bilan sug'orilgan, alohida jo'shqinlik va fidoiylilik bilan yozilgan. Yo'ldosh Solijonov bunday mavqega erishgunga qadar mahorat maktabining sir- sinoatli va murakkab yo'lini bosib o'tdi.

Yo'ldosh Solijonov : “Egilganga egil – boshing yerga tekkuncha. Kekkeyganga kekkey – boshim ko'kka yetguncha; Va'da berdingmi, albatta, bajar;

Berilgan ishni o'z muddatida qil” kabi naqlarni hayotiy a'moliga aylantirgan tirishqoq ijodkor hisoblanadi. Yo'ldosh Solijonov o'z faoliyati davomida 16 ta monografiya, risola, o'quv-uslubiy qo'llanma, 58ta to'plamlardagi maqola, 62 ta jurnal, turli gazetalarda 230 dan ortiq maqolalarini e'lon qildi. Olimning ma'sul muharrirligida nashr qilingan to'plamlar 13ta tashkil qiladi. Bu ko'rsatkichlarning o'ziyoq Yo'ldosh Solijonovning serqirra ijodkor ekanidan dalolat beradi.

Adabiyot fani jahonga yuz tutib, tobora yuksalish, yangilanish jarayonini boshdan kechirayotgan shu kunlarda eng dolzarb va muhim muammolarni tadqiqot markaziga olib chiqish va hal etishdek ulkan vazifani mamlakatimiz olimlari qatorida amalga oshirishga intilayotgan Yo'ldosh Solijonovning ham ilmiy, ham hayotiy faoliyati barchamiz uchun o'rnak hisoblanadi. Muhtaram Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov aytganlaridek, " Fanimiz, aql – zakovat salohiyatimizning noyob va go'zal binosiga bundan ko'p asrlar muqaddam poydevor solingan edi. Mamlakatimiz fani juda qadim zamonlardan yuksala boshlaganini, uning chuqur va qudratli ildizlari borligini faxrlanib ayta olamiz. U asrlar davomida o'z millatiga, butun insoniyatga tabiat sirlarini o'rganishda, falsafa, huquqshunoslik, ilohiyot, adabiyotshunoslik va tilshunoslikka ishonchli xizmat qilib kelmoqda"¹.

Darhaqiqat, fanimiz juda qadimiy va ko'p tarmoqlidir. Uning har bir tarmog'ini tadqiq qilish murakkab jarayon hisoblanadi. Chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lgan o'zbek adabiyotshunosligi mamlakatimizda yuzaga kelgan yangi voqelik munosabati bilan fanning nazariy muammolari, xususan, poetikamasalalari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar oldiga g'oyat murakkab va sharaflil vazifalarni qo'ymoqda. Adabiyotshunos Yo'ldosh Solijonov ham ana shunday muhim muammolardan biri – roman poetikasining tarkibiy qismi hisoblangan badiiy nutq muammolari, uning tiplari va shakllarining o'ziga xos ko'rinishlarini tadqiq etishni o'z zimmasiga oladi. Hozirgi o'zbek nasri nafaqat o'zining mazmundagi yangiliklari, balki shakli, xususan, badiiy adabiyotning til xususiyatlari bilan ham tamomila yangilikka yuz tutdi. Ana shu yangiliklarning alohida qirralarini va muammolarini Yo'ldosh Solijonov ochib, yoritib berdi.

Adabiyotshunos Yo'ldosh Solijonov o'zining ilmiy faoliyati davomida masala va muammolar yuzasidan tadqiqot ishlarini olib bordi:

¹ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997., 259 – b.

1. Hozirgi o'zbek prozasida vujudga kelga yangich nutqiy jarayonlarni adabiyotshunoslik yo'nalishi bo'yicha qilib, asarning til xususiyatlarini tilshunoslik fani nuqtai nazaridan tekshirishdan tubdan farq qilishini aniqladi;
2. Adabiyotshunoslik tilshunoslik fanidan til xususiyatlaridagi muammoni hal etishda badiiy adabiyot tili va undagi uslublar rang – barangligi, so'z ma'nosi hamda ovozlar xilma – xilligi, ohang va ritm singari badiiy nutq vositalarini qo'llash mahoratini shaxsiy uslub doirasida keng va mukammal tadqiq etishi bilan ajralib turishini asoslab berdi;
3. XX asrning 80 – 90 – yillarida yaratilgan o'zbek nasrining yetuk namunalari ustida izlanishlar olib bordi;
4. XX asrda yaratilgan asarlarda odam va olam konsepsiyasini tadqiq etishga yangicha nuqtai nazar bilan yondashish tamoyili yuzaga kelganligini aniqladi;
5. Mustaqillik sharofati ila qayta tug'ilga hozirgi o'zbek nasri o'zining g'oyaviy – estetik qimmatini va badiiy fazilatlarini bilan umumjahon doirasiga chiqib, katta yo'lga kirganligini yoritib berdi;
6. O'zbek nasrining so'nggi yigirma yillikda ko'zga tashlangan yangi nutqiy jarayonlarini aniqladi va badiiy nutq poetikasini tadqiq etdi;
7. Ijodkorning adabiy - estetik pozitsiyasini belgilash, muallifning badiiy nigohi qamrovining nechog'lik kengayganligini ko'rsatib, insonning hali tahlil doirasiga tortilmagan o'ziga xos qirralarini ochishda yozuvchining mahorati qay darajada bo'lishini tadqiq etdi;
8. O'zbek nasrining so'nggi yillarda paydo bo'lgan yangi fazilatlarini aniqlab, muammoni ko'proq polifonik nutq nuqtai nazaridan tekshirishdi, tahlil doirasiga tortdi;
9. Polifonik romanda , eng avvalo, fikrlar rang - barangligiga, bir – biriga zid, qarama – qarshi harakat qiluvchi, inkor etuvchi, ayni chog'da o'ziga xos qarashi va mustaqilligiga ega bo'lgan taqdiralar hamda e'tiqodlar-ning ko'pligiga, ularning o'zaro muvofiqlashuviga, bir - birini to'ldirishi va boyitishiga e'tibor qaratdi. O'zbek adabiyotida ko'p ovozli roman ijodkori

sifatida Omon Muxtor asarlarini tavsiya qildi va uning ustida izlanishlar olib bordi;

10. Polifonik roman tufayli o'zbek adabiyotiga mustaqil fikrlovch inson obrazi kirib kelganligini aniqladi va u barcha masalalarni dialog doirasida munozara hamda muhokama qilib hal etishga intilayotganligini asoslab berdi;

11. Polifonik roman makrostrukturasida ko'zga tashlanayotgan ijobiy o'zgarishlar boshqa janrlarning ham yangilanishi va boyishiga turtki berayotganligini ko'rsatdi;

12. Dialogik nutq bayon tipining qurilishiga qarab belgilanishini, unda har bir xarakterning o'ziga xos belgilari to'laroq namoyon bo'lishini asoslab berdi;

13. Hozirgi adabiy jarayonda adiblarimizning psixologik tahlil sohasidagi novatorlik faoliyatlarini yuksak baholaydi. Yozuvchilarimiz qahramonning ruhiy olamini ochishda uning ichki "meni"ni faol ishga solishga urinayotganligini ta'kidlaydi;

14. Asar qahramonlarining ruhiy holatini ochishda dialog, remarka va replikalarning o'rni hamda ro'li ancha oshganligini va kengayganligini asoalaydi;

15. Mustaqillik yillarida o'zbek nasrida erishilgan yutuqlar, nutqiy jarayonlarning rang – barangligi va u orqali yozuvchilar uslubining o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Said Ahmad, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov singari adiblarimiz ortidan borib, ko'hna Sharq adabiyoti an'analarini chuqur lirizm bilan boyitgan O'tkir Hoshimov, o'lmas xalq og'zaki ijodi unsurlaridan unumli foydalanib, milliy ruhdagi yetuk asarlari bilan e'tiborni tortayotgan Omon Muxtor, personajlarning ong oqimi qatlamlarini batafsil yoritishga mahorat bilan yondoshayotgan Murod Muhammad Do'stlarning har bir asari yirik tadqiqotlarga ozuqa berayotganligini alohida e'tirof etadi.

Adabiyotshunos Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Oybek, Said Ahmad, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Odil Yoqubov, Shukur Xolmirzayev, To'g'ay Murod, Omon Muxtor, Murod Muhammad Do'st, Xurshid Do'stmuhammad kabi o'zbek adiblari hamda Kamyu, Sizif, Absurd singari jahon adabiyoti

vakillari ijodiga kuchli e'tibor bilan qaradi. Ulardan mahorat sirlarini ustalik bilan o'rgandi. O'z o'rnida ular ijodini tadqiq ham qildi.

Ustoz Yo'ldosh Solijonov Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ma'ruf Jalil, Rauf Parfi, Usmon Azim, Azim Suyun, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo singari o'zining ham, so'zining ham qadriga yetadigan shoirlar ijodini namuna qilib ko'rsat-sa, Bahrom Ro'zimuhammad, Muhtarama Turkoy, Oymomo Obidova, Odiljon Hotamov, G'ayrat Majid, O'ktam Mirzayor, O'tkir Xidirov kabi havaskor shoirlar bitgan satrlarini qattiq tanqid ostiga oladi.

Adabiyotshunos olim Yo'ldosh Solijonov o'z izlanishlari va tadqiqotlari davomida badiiy nutq va uning poetikasiga alohida e'tibor qaratdi. Har bir badiiy asarda so'z alohida, muhim ahamiyatga ega ekanligini, badiiy asarda so'z o'zining aniq va jonli bir butunligi, turli ma'no jilolari bilan namoyon bo'lishini, so'z fikrni teran, aniq, mazmundor va tushunarli ifodalashga xizmat qiluvchi vosita hisoblanishini, badiiy asarda so'z ifodalanayotgan hayotning aniq tomonlarini tasvirlashga xizmat qilishini to'la yoritib berdi. Tanqidchi va tadqiqotchi adabiyotshunos Yo'ldosh Solijonov o'z izlanishlari davomida juda ko'p yangiliklar yaratdi va yuksak cho'qqilarga erishdi. Uning izlanishlari besamar ketmadi. Asosli dalillar yordamida o'z fikrini ommaga namoyon etgan olim adabiyotchi, tanqidchilar orasidan munosib o'rin egalladi. Buni olimning fikrlaridagi aniqlik, teranlik, soddalik hamda tushunarlilik tasdiqlab turadi. Bir so'z bilan aytganda, adabiyotshunos hamda tanqidchi olim Yo'ldoshxo'ja Solijonov badiiy asarda muallif nutqi va yozuvchi uslubi o'ziga xos ekanligini asoslab beradilar.

Taniqli adabiyotshunos, filologiya fanlari doktori, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a'zosi Yo'ldosh Solijonov o'z ijodiy va ilmiy faoliyati davomida juda katta yutuqlarga erishdi. Biz shogirdlar mana shunday ulkan iste'dod sohibining bilim chashmalaridan bahramand bo'layotganimizdan faxrlanamiz va u kishiga tan - sihatlik, oliaviy tinchlik, ijdda va ilmiy faoliyatda bundan – da ulkan zafarlar hamda uzoq umr tilaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ilm – ziyo salohiyati - yurt boyligi. “Ma’rifat ” gazetasi. 1993.
2. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch. Toshkent: 2008.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent: “Sharq” 1999.
4. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun barchamiz mas`ulmiz. Toshkent: 2001.
5. Rasulov A. Ardoqli adib. T., 1997.
6. Qayumov L. Hamza. Adabiy portret. T., 1987.
7. Solijonov Y. XX asrning 80 – 90 – yillari o’zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. – T., 2002.
- 8.** Solijonov Y. Dil daftaridan bitiklar.—Farg’ona, 2011.
9. Solijonov Y. Milliy istiqlol g’oyasini o’rganishning bazi dolzarb muammolari. Farg’ona, 2001 .
10. Solijonov Y. Nutq va uslub. T., Cho’lpon nomidagi nashriyot, 2002.
11. Solijonov Y. XX asrning 80-90-yillari o’zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya avtoreferati. T., 2002.
12. Solijonov Y. Olimning olami. Farg’ona, 2004.
13. Solijonov Y. Farg’ona adiblari. Farg’ona, 2005.
14. Solijonov Y. Avtor nutqi va psixologik tasvir // Ijodiy jarayon va adabiy individuallik. T., 1980.

15. Solijonov Y. Hozirgi o'zbek prozasida nutq shakllari // o'zbek filologiyasi materiallari. T - 2002.
16. Solijonov Y. Ikki ovozli nutq // o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari. Farg'ona - 2005.
17. Solijonov Y. Detallar tilga kirganda. o'zbek adabiy tanqidi tarixi. Antologiya. T., "Turon - iqbol" nashriyoti. 2011.
18. Solijonov Y. Badiiy nutq // o'zbek tili va adabiyoti. - 1979.
19. Solijonov Y. Hozirgi o'zbek nasrida nutq shakllari // o'zbek tili va adabiyoti. – 2001.
20. Solijonov Y. Dialog va uning badiiy asardagi o'rni // o'zbek tili va adabiyoti. - 2002, 4-son.
21. Solijonov Y. Nutq polifoniyasi va uning uslubiy vazifalari // FarDU ilmiy xabarlar. - 2002
22. Solijonov Y. Badiiy asarda monologik nutq // o'zbek tili va adabiyoti. - 2004
23. Solijonov Y. Olimning olami. Farg'ona, 2004.
24. Solijonov Y. Haqiqatning sinchkov ko'zlari. T., 2009.
25. Solijonov Y. Mohir sanatkori. T., "O'zbekiston" nashriyoti, 1984 (S. Toshkanov bilan hamkorlikda).
26. Solijonov Y. She'riyatning sirli jilvalari. "So'z mas'uliyati" nomli adabiy-tanqidiy maqolalar to'plami. T., G'.G'ulom nomidagi ASN, 1986. 92-148-betlar.
27. Solijonov Y. Tong yulduzlari. Farg'ona, 1995.
28. Solijonov Y. Milliy istiqlol g'oyasini o'rganishning bazi dolzarb muammolari. Farg'ona, 2001 (N. Sobirov bilan hamkorlikda).
29. Solijonov Y. Nutq va uslub. T., Cho'lpon nomidagi nashriyot, 2002.

30. Solijonov Y. XX asrning 80-90-yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya avtoreferati. T., 2002.
31. Solijonov Y. Farg'ona adiblari. Farg'ona, 2005.
32. Solijonov Y. Zulmatdan nur qidirganlar. T., A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxona nashriyoti, 2007.
33. Solijonov Y. Men Sizdan saboq oldim (adiblarga maktublar). T., A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxona nashriyoti, 2007.
34. Solijonov Y. So'z sehgari. T., "Nihol" nashriyoti, 2007.
35. Solijonov Y. Chingiz Aytmatov - inson va tabiat kuychisi. Farg'ona, 2009
36. Solijonov Y. Hozirgi o'zbek lirikasi. Farg'ona, 2009.
37. Solijonov Y. Hamid Olimjon ijodini o'rganish. Farg'ona, 2009.
38. Solijonov Y. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. Andijon, "Hayot" nashriyoti, 2010.
39. G'ulomov A. Badiiy adabiyotning tili haqida. "Adabiyot va san'at" j. 1941, №1.

INTERNET SAYTLAR:

- 1.<http://www.ziyonet.uz>
- 2.<http://www.google.uz>
- 3.<http://www.ref.uz>
- 4.<http://www.kitob.uz>